

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

**“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI “MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH” TA’LIM
YO‘NALISHI “MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL
ETISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARIDA BOLALAR
IJODIYOTINI TASHKIL ETISH” MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ishi kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi” “Madaniyat
va san’at muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” kafedrasining ____ - sonli
yig‘ilishi bayonnomasi
“_____” _____ 2016 yil
Kafedra mudiri: _____
X.Shodiev

Bajardi : 5151700 – “Madaniyat va
san’at muassasalarini tashkil etish
va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi

Uldjayeva Muhlisa
Ilmiy rahbar:
s.f.d.professor, M.Bekmurodov

Toshkent – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB “MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARIDA BOLALAR IJODIYOTINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Bolalalar ijodiyotini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	8
1.2. Bolalar ijodiyotini tashkil etish va ehtiyojlarini o‘rganishni takomillashtirishda madaniyat va aholi dam olish markazlarining o‘rni	19
2.BOB RESPUBLIKA HUDUDLARIDA IQTIDORI VA QIZIQUVCHAN BOLALAR IJODIYOTIGA QARAB TANLAB OLISH VA UNING AMALIY JIXATLARI	
2.1 Yoshlarning qiziqish va iqtidoriga qarab klassifikatsiya qilish	33
2.2 Bolalar ijodiyotini tashkil etish va ehtiyojlarini o‘rganishni takomillashtirishda madaniyat markazlarining amaliy ahamiyati	51
XULOSA	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	61
Ilovalar	65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Jamiyat hayotida ro‘y berayotgan islohatlar, axborotlar oqimining ko‘payishi shaxs ongi, dunyoqarashi va tafakkurida ma‘lum o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu bevosita shaxsni jamiyatga moslashish jarayonining tezlashishiga yoki aksincha moslashish jarayonining sekinlashuviga olib keladi.

Barkamol avlod tarbiyasi insonning eng yorqin orzusi bo‘lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o‘ylashmagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma‘rifatga, madaniyatga mansub bo‘lgan yurtlarning donishmandlari eng mutabar ziyolilar, hisoblanganlar.

Shunday ekan yurtimizni azaldan daholar yurti deb haqli ravishda hammamiz faxrlanib kelimiz. Imom Buxoriy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Mirzo Bobur kabi buyuk allomalarimiz o‘zlarining yorqin iste‘dodlarini juda yoshlik chog‘laridan namoyon qilganlar. Shuning uchun buyuklik, yuksak iste‘dod egasi bo‘lish qonimizda bo‘lib, hozirgi kunda ko‘plab iqtidorli bolalarning yetishib chiqayotganligi bejiz emas.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" "Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli asarlarida "Kuch - bilim va tafakkurda" degan g‘oyalarini ilgari surib, yoshlarni shunday bo‘lishga undaganliklari bejiz emas. Chunki bugungi yoshlar ertangi yurt egalari. Shuningdek, yurtboshimiz komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan bilimli, ma‘rifatli kishilarni tushinamiz, deydilar¹.

O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi ob'ektlarini asrash, ko‘paytirish, zamonaviy to‘garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo‘li bilan badiiy ijod va amaliy san‘atni rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Jumladan, xalq ijodiyoti va tomosha san‘atining ko‘rgazmalari hamda tanlovlarini o‘tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi 2010 yil.

ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ'ib qilish va eng asosiysi, barkamol avlod ma'naviyatini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi qaroriga muvofiq barpo etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlari, turli to'garaklar tashkil etishga ixtisoslashtirilgan majmualar aholining madaniy dam olishini ta'minlash, ong va tafakkurini boyitish, mazmunli va maroqli hordiq chiqarishiga ko'maklashish, o'sib kelayotgan yosh avlodning iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama barkamol tarzda voyaga yetishlari, ilm cho'qqilarini zabt etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, ularning turli zararli illatlar hamda oqimlarga aralashib qolmasliklari uchun targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Bu borada ma'naviyat o'chog'i hisoblanmish Madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni ham alohida ahamiyatga ega ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida qirq mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan hududlarda kamida to'rt yuz o'rinli, aholi soni yigirma mingdan ziyod bo'lgan joylarda esa 250 o'rinli tomosha zaliga ega markazlarni qurish ishlari jadal olib borilmoqda. Zamonaviy barpo etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida nomoddiy madaniy meroslarimiz hisoblangan milliy san'atimiz va xalq og'zaki ijodi durdonalarini targ'ib qilish maqsadida bir qator to'garaklar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Shu boisdan Respublika bolalar ijodiyoti festivali iqtidorli bolalarni aniqlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dod va mahoratlarini namoyon qilishlari uchun imkoniyat yaratish, yosh avlodning ma'naviy olamini boyitish, madaniy saviyasini yuksaltirish, san'at va go'zallikka intilishini kuchaytirish, milliy san'at an'analari va yo'nalishlarini saqlab qolish, rivojlantirish va davom ettirish maqsadida har yili an'anaviy tarzda va tanlov shaklida o'tkaziladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25- iyundagi qarori.

O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Respublika «Kamalak» bolalar tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi Festival tashkilotchilari hisoblanadilar. Festivalda 6-15 yoshdagi ijodkor va iqtidorli bolalar ishtirok etadilar.

Iqtidor, qiziqish va qobiliyat muammolari uzoq vaqt davomida psixologlar oldida turganligiga qaramasdan hozirgi kunda uni to'liq hajmda tushuntirib beradigan biron shaxs nazariyasida yagona konsepsiya mavjud emas. Kasbiy mahorat, iste'dod muammosi juda ko'p soha mutaxassislarini qadim zamonlardan o'yantirib kelgan. Shaxs nazariyasida ushbu muammoning ba'zi bir tomonlarini ochib berishi inobatga olinsa, bu xususiyatning paydo bo'lishi, o'sishi, rivojlanishi va o'z cho'qqiga chiqishi haqida aniq, oydin qarashlar mavjud bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, bolalar ijodiyotini shakllantirishda madaniyat va aholi dam olish markazlari roli, hamda oila, ijtimoiy muhit va biologik omillarining ta'sirini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy hamda jadid ma'rifatparvarlari A.Avloniy, H.H.Niyoziy kabilar o'quvchining iqtidorini nomoyon eta olishiga erishish ta'lim jarayoni samaradorligi kafoloti ekanligiga alohida e'tibor qaratishgan. Xorij psixologlari P. Torrens, J. Gilford, K. Telor, rus psixologlari N.S.Leytes, S.L.Rubinshteyn, A.M.Davletshen, va hamyurtlarimiz B.R.Qodirov, V.Karimova, I.Sunnatova, Z.Nishonova kabilar iqtidor, iqtidorli bolalar to'g'risida nazariyalar yaratgan va tadqiqot ishlarini olib borgan.

Tadqiqotning maqsadi: Madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlarning yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini takomillashtirish mazmunini yoritish orqali mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Bolalar ijodiyotini tashkil etish yuksak intellektual salohiyatli avlod tarbiyasi mazmunini yoritish
2. qiziquvchan va iqtidorli yoshlar bilan ishlashni takomillashtirishning tavsifini aniqlashtirish.
3. madaniyat va aholi dam olish markazlarida bolalar ijodiyotini tashkil etish, qiziquvchan va iqtidorli yoshlar bilan ishlash texnologiyasini ko'rsatib berish.
4. madaniyat va aholi dam olish markazlarida ijodkor o'quvchilarni aniqlash metodikasini ishlab chiqish orqali mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning predmeti: madaniyat va aholi dam olish markazlarida ijodkor bolalar bilan ishlash mazmuni va texnologiyasi.

Tadqiqotning obykti: Respublika hududlaridagi madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlar bilan ishlash jarayoni olindi.

Tadqiqot ishining metodlari: kuzatuv, suhbat, na'muna qilib ko'rsatish, qiyosiy tahlil, loyihalashtirish kabi metodlardan fodalanildi.

Tadqiqot ishining metodologik asoslari: Sharq allomalarning asarlaridagi fikr va muloxazalar, Prezidentimiz I.A.Karimovning "Barkamol avlod orzusi", "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kabi asarlarida barkamol shaxs to'g'risidagi fikrlari, ta'lim - tarbiya haqidagi hamda "Barkamol avlod" yili Davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiyasi", O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" «Kamalak» yulduzlari» Respublika bolalar ijodiyoti festivali.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:

1. madaniyat va aholi dam olish markazlarida bolalar ijodiyotini shakllantirish va iqtidorli yoshlar bilan ishlash usul va uslublari o'rganilib chiqilib tavsiyalar ishlab chiqildi.
2. madaniyat va aholi dam olish markazlarida qiziquvchan va ehtiyoji bor yoshlarni aniqlash metodikasini ishlab chiqish orqali mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy – metodik tavsiyalar keltirib o'tildi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan madaniyat va aholi dam olish markazlari, kollej, maktab o'qituvchilari ma'lumot sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt band, ilova, glossariy va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat, xulosa hamda tavsiyalar berib o'tilgan.

I. BOB “MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARIDA BOLALAR IJODIYOTINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Bolalalar ijodiyotini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

Yoshlarning iqtidori, iste’dodi va qobiliyatlari masalasi va ularning ta’limini tashkil etish barcha zamonlarda dolzarb masalalardan bo‘lib kelgan. Tarixda o‘tgan buyuk allomalarimizdan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Az-Zamaxshariy, Mahmud Koshg‘ariy, Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin ad-Davoniy, Xusayin Voiz Koshifiylar (VIII-XV) o‘z asarlarida iqtidorli, qobiliyatli va iste’dodli yoshlarga ta’lim tarbiya berish borasida bir qancha ibratli fikrlarni bildirishgan.

Jumladan: O‘rta asr Sharqning mashhur mutaffakiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ‘ibotchisi Abu Nasr Farobiy (873-910) “Ideal jamoa haqida”, “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida” risolalarida inson onggi, aqli, sezish a‘zolari tufayli olamni o‘rganishi, o‘z aqli yordamida o‘zini o‘rab olgan mavjudotning mohiyatini tushininshi qobiliyatiga egaligini aytadi. U “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida ta’lim - tarbiya inson shaxsini komol toptirishning yo‘l – yuriqlari, ilim – ma’rifatga erishuvning usullari, ijtimoiy muammolarni yechish masalalari xususida fikr bildiradi.

Farobiy, O‘rta asr yaqin va O‘rta Sharqda ilg‘or pedagogik ta’limotlarning asoschilaridan biri sifatida, o‘z asarlarida didaktik, ta’lim – tarbiyaning psixologik asoslarini, axloq estetikaning muhim nazariy masalalarini o‘z falsafasining ajralmas qismi tarzida tahlil etadi. Inson iqtidorining rivojida ilm – fanni hal etuvchi omil deb biladi, tashqi olamni o‘rganish, tabiat sirlarini bilishda tabiiy bilimlarning mohiyatini alohida qayd qiladi.

Farobiy pedagogik va psixologik, fiziologik muammolarni falsafasining muhim qismi sifatida talqin etadi. Bilishning ikki bosqichi – hissiy bilish va aqliy bilish haqida fikr bildirib, bunda inson bilim olishida bilish jarayonlarining o‘rni haqida gapiradi. “Inson bilimlarni aql va sezish a‘zolari orqali qo‘lga kiritadi. Seziluvchi obrazlar his etish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali

bilinadi”.

Farobiyning ta’limoticha, insonning besh sezgi a’zosi besh turli vazifani bajarishga muvofiqlashgan bo’lib, ular tashqi muhitdan olingan xabarlarni bir yagona markazga olib keladi va bu birinchi markazda barcha xabarlar – obrazlar umumlashadi. Odam a’zolarining markazi bo’lgan yurak, tana va uning a’zolarini qon bilan ta’minlaydi, qon yurak orqali butun a’zolarga tarqaladi. Ikkinchi markaz – miya qon bilan tirik bo’lganligi sababli, yurakka bo’ysunadi, lekin shu bilan birga, u butun a’zolarga rahbarlik qiladi, o’z buyrug’iga bo’ysundiradi, ularni ma’lum mo’tadillikda ushlab turadi¹.

O’rta asr mutaffakrlaridan Abu Ali ibn Sino (910 - 1037) jamiyatning iqtidorli o’quvchilariga ta’lim tarbiya berishda, mantiq, aql, tafakkur, aniq fanlarning tutgan o’rni, ularni o’qitish usullari haqidagi ta’limotlarning “Tib ilimlar qonuni”, “Najot kitobi”, “Insof kitobi”, “Donishnoma” asarlarida ham bayon etgan.

Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida bolalarni qanday o’qitish va nimalarga e’tibor qaratish haqida, uning usullari ustida ham muhim fikrlarni olg’a suradi. U bolalarni bitta – bitta, alohida o’qitishdan ko’ra jamoa tartibida o’qitishni afzal deb biladi, va uning ustunligi haqida yozadi: “O’quvchilar o’qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O’z bilimlari bilan g’ururlanadilar, bir – birlarining bilimlariga havas qiladilar. G’urur va o’ziga e’tibor tarbiyalanuvchilarni bir - birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O’quvchilar birga bo’lganda, doim bir - birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o’z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar”²

Ibn Sino ayrim bola tilni o’rganadi, ayrimlari shoir bo’lib yetishadi yoki notiqlik san’atini egallaydi. Ilmlarning turli sohalarida kimdir tilni o’rganish, kimdir boshqa ilmni o’rganishga kirishganidan so’ng, ba’zilarning tibbiy fanni, ba’zilarning geometriya ilmini tanlagani ma’lum bo’ladi – deb o’z fikrini davom ettiradi.

Ibn Sino o’z asarida bolaning iqtidori aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslariga bog’liqligini aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o’simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo’ladi.

¹Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. T:2006. 14-15 b.T: 1993 .

²Abdurahmonov.A. Saodatga eltuvchi bilim. 1-2 kitob. T:2003 .

Insonda har uch hayotiy quvvat va insongagina xos bo'lgan aqli bo'lgan aqliy xujjat mavjuddir. Insonda tashqi muhit hissiy tuyg'ularni keltirib chiqarish mumkin. Masalan, inson yoshlik chog'larini eslar ekan, unda xursandlik kayfiyati qo'zg'aladi.

Olimning ta'kidlashicha, mantiq, ya'ni to'g'ri fikr yuritish aqldan to'g'ri foydalanish, xatolardan saqlanish qoidasini o'rgatadi, ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarga o'tish yo'lini ko'rsatadi.

Buyuk falakshunos olim Mirzo Ulug'bek (1394 - 1449) o'zining pedagogik faoliyatida o'quvchilarining iqtidorini rivojlantirishga katta e'tibor berdi. U o'qituvchilardan hamma mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkazishni, o'quvchilarning har bir darsda biror yangilikni bilib olishlariga ahamiyat berishni talab etadi.

Olimning fikricha, yoshlar olgan bilimlarning ahamiyatini, bu bilimlardan maqsad nima ekanini aniq anglab, bilimlarini takomillashtirib borishlari, ularni hayotga tadbiiq etish yo'llarini bilishlari, jamiyat va xalq farovonligi yo'lida zarur hunarlarni egallab olishlari kerak. Shu bois Mirzo Ulug'bek bilimlarni nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham tavsiya etadi.

Ulug'bek maktab va madrasalarda o'quvchining erkin va har tamonlama rivojlanishga bo'lgan huquqini himoya qilib, o'qituvchilarni yetuklikka, faol, bilimdon va chuqur saviyali insonlarni shakllantirishga da'vat etadi.

Allomaning uqtirishicha, bolani bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallaydi. Oilda ota – onalar, ayniqsa, o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarini haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.

Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom va baqquvat bo'lishi uchun yoshlik chog'idanoq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi kerak.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973 - 1048) o'z qarashlarida insonni axloqiy kamolotga yetaklovchi xislatlardan biri oliyjanoblik deb ko'rsatadi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi

zamon pedagogikasi e'tirof qiluvchi – irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Muayyan bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor, etib faqat tarbiyani tan oladilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Farobiy, Ibn Sino kabi inson kamolotida har uchaldasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga yetishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot muhim o'rin tutadi, nasl – nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi, deydi¹.

Abu Rayhon Beruniy nazarida, inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilm – ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigienasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar ahamiyatga egadir.

O'zbek xalqining ulug' mutaffakiri Alisher Navoiy (1441 - 1501) o'z ilmiy va adabiy faoliyatida ham, ta'lim tarbiya haqidagi fikrlarida ham o'zidan oldingi Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqa mutafakkirlar an'anasini davom ettirdi va boyitdi.

Alisher Navoiy bolani voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishga ishonadi.

Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug'ullanish bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna usulidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida e'tiborni qaratadi. Tarbiya va ta'lim ishlari o'qituvchi, ota – ona tomonidan olib borilishi lozim.

Alloma fan asoslari yoki biron bir muayyan kasb hunar sirlarini o'rganishga layoqatli, istedadli, bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir, degan xulosaga

¹ Abdullayeva Sh, Po'ziyev R. Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010.-152 b.

keladi, ya'ni "Qobiliyatini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya xayf. Uni Tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyangni nobud qilma."

XV – asr mutafakkirlaridan biri Husayin Voiz Koshifiy (1440 - 1505) o'zining ta'lim tarbiya haqidagi g'oyalarini asosan "Axloqiy Muxsiniy" kitobida bayon qiladi. Bu asarda aql bilan faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xususida to'xtalib o'tadi. Doim nazarida, harakat, faoliyat – aqlning ko'zgusidir.

Aql yordamida hayotiy tajriba ortadi, kishilar tomonidan to'plangan shaxsiy tajriba negizida bashariyatning umumiy tajribasi shakllanadi, ma'naviy qadriyatlar majmui xolis bo'ladi, shu tarzda ular kelgusi avlodga yetkaziladi.

Husayin Voiz Koshifiy insonni unga bilim berish orqali tarbiyalash, uning aqliy qobiliyatini o'stirish mumkin, deya hisoblaydi va bilim insonni komillik darajasiga ko'taruvchi mezon ekanligiga ishonadi.¹

Husayin Voiz Koshifiyning o'qitirishicha, insonni ta'lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatini o'stirish mumkin. Buning uchun bolaga yaxshi ta'lim tarbiya berish, unda yaxshi sifatlarni o'stirishga, uni nojuya xatti – harakatlardan qaytarish lozim.

Koshifiy o'z pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota–onalar va muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy va tashqi muhit muhim o'rinda turadi. Koshifiy fikricha, "Murabbiy nasihat ta'lim berishda lutf va odob qoidalarida qat'iy turishi, ularga rioya qilishi darkor" Koshifiy fikricha, "Murabbiy nasihat ta'lim berishda lutf va odob qoidalarida qat'iy turishi, ularga rioya qilishi darkor"

Ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida yondoshish, ularni ruhiy xususiyatlarini chuqur bilish pedagogik jarayonda bu xususiyatlarni hisobga olishni ta'minlash uchun psixologik xizmatni yo'lga qo'yish bugungi kun talabidir.

Kadrlar tayyorlashda dolzarb va katta inqilobiy yo'nalishlardan biri – maktab o'quvchilari orasidan istedadli, zukko bolalarni aniqlab, ularni alohida dasturlar aosida o'qitish, xalq xo'jaligi uchun malakali mutaxassislar yetishtirishdir.

¹Pedagogika tarixi. K.Xoshimov,S.Nishanova.Darslik.-T.: "A.Navoiy UMKN.2005y169-170"

Intellektual mulk deb atalgan bu boylik mamlakatimiz taraqqiyoti omili, ma'naviy va moddiy boyligidir. Asosiy boylik egasi, ya'ni intellektual mulk sohibi, aql- zakovati cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan inson esa o'z tafakkuri bilan ijod, buyuk ixtirolar qilishga qodir bo'ladi, insosiyat va jamiyat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi.² Shu sababli axloqan sof mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo'lgan bolalarni maxsus o'qitish va ularga ko'proq umid bog'lash lozim. Aynan shunday bolalar kelgusida yanada muhimroq iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy masalalarni yechishga qodir bo'ladilar

O'zbek avlodini jahonga ko'z – ko'z qila oladigan kishilar – bu istedadli, qobiliyatli, zukko o'z ishining ko'zini bilib bajaradigan qo'li gul, o'z sohasining mohir mutaxassislaridir.

Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o'quvchilari orasidan asosli ravshda tanlashimiz va ularni layoqat yo'nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo'naltirishimiz kerak. Afsuski, bu sifatlar bolada bo'lmasa, uni orttirish oily o'quv yurtida ham, maktab ham qiyin. Shuning uchun istedadlilarni tanlashda xatoga yo'l qo'yish shaxsni tahqirlash hisoblanadi. Aniqlashning bir necha yo'llari bo'lib, eng asosiy psixologik testlar, topshiriqlar va suhbatdir.

Iqtidorli bolalarning muammolari.

Leta Xollinguort intellektual jihatdan istedadlilarning moslashuvini o'rganib chiqib, bu muammoga o'zining katta hissasini qo'shdi. Madaniyat va aholi dam olish markazi xodimlari va pedagoglar iqtidorli o'quvchilar bilan ishlayotganda quyidagi muammolarga e'tiborini qaratishi lozim.

-Maktabni yoqtirmaslik. Bunday holat istedadli bola uchun asosan maktab dasturi zerikarli va qiziq bo'lmagan holatda sodir bo'ladi.

-O'yin holatiga bo'lgan qiziqishlar. Istedodli bolalarga murakkab o'yinlar juda yoqadi ularga hamma tengdoshlarini qiziqtiradigan o'yinlar zerikarli tuyiladi. Shu sababdan istedadli bola yakkalanib qoladi.

² A.Zununov, M.Xayrullayev. Pedagogika tarixi. -T.: "Sharq".2000 y. 98-99 b

-Konformlilik. Istedodli bolalar standart talablarni inkor qiladi, agar standartlar uning uchun to'g'i kelmasa, ma'nosizdek tuyuladi.

-Falsafiy muammolarga o'ralashib qolish. Istedodli bolalar ko'pincha o'lim haqida, qabrdagi hayot, diniy ishonch va falsafiy muammolar haqida ko'p boshlarini qotiradilar.

-Fizilogik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishning bir-biriga mos kelmasligi. Istedodli bolalar o'zlaridan katta bo'lgan bolalar bilan muloqot qilishni va o'ynashni yoqtirishadi. Shuning uchun ham ular sardor bo'lishga qiynalishadi, chunki ularda fiziologik o'sish kechroq bo'ladi.

-Mukammallikka intilish. Istedodli bolalar uchun ichki mukammallik ehtiyoji muhimdir. Ular yuqori bosqichga chiqmaganlaricha to'xtamaydilar. Bu ko'rinish juda erta nomoyon bo'ldi.

-Qoniqmaslik hissining mavjudligi. O'ziga bo'lgan bunday munosabat mukammallikka intilish hissi bilan o'zaro bog'liqdir. Ular o'zlarining yutuqlariga tanqidiy nazar bilan qarashadi, ko'pgina hollarda qoniqmaydilar, shuning uchun ham past o'zini baholash vujudga keladi.

-Real bo'lmagan maqsadlar. Istedodli bolalar ko'p hollarda o'zlarining oldiga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Ularni bajarish imkoniyati bo'lmagach, ular xavotirga tusha boshlaydilar. Boshqa tomondan bu yuqori ko'rsatkichlarga intilishga undovchi kuchdir.

-O'ta sezuvchanlik. Istedodli bolalar tashqi muhit ta'sirlarini yaxshi sezganlari uchun tashqarida bo'ladigan tanqidga juda katta ahamiyat beradilar. Istedodli bolalarning ko'ngillilar juda nozuktur, ular ko'pincha noverbal holatlarni o'zlari uchun deb tushunadilar.

-Kattalar e'tiborini tortishga intilish. Tabiat ato etgan dunyoqarashi va bilishga intilish jarayonida istedodli bolalar o'qituvchi, ota – ona va boshqa katta insonlarning e'tiboriga muhtoj bo'lib qoladilar. Bu boshqabolalarning jahillari chiqishiga olib keladi.

- Sabrsizlik. Iste'dodli bolalar o'zlaridan past bo'lgan intellektda turadigan bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'lishadi. Ular atrofida gilarining munosabatlarini va tanqidlarini inkor etadilar, ular bunga nafrat yoki sabrsizlik bilan javob berishadi.

Bolalarning qobiliyat yo'nalishlari darajasini aniqlash usullari

	1-bosqich (1-4-sinf)
1	Kuzatish jarayonida o'rganish
2	Suhbat jarayoni orqali qiziqishlarini o'rganish
3	Ota – onasidan bolaning qiziqishlarini so'rab o'rganish
4	Testlar orqali diqqat xotirasini tekshirish,
5	Tadbirlar, (KVN, konsertlar, kechalar, bayramlar)
6	Dars jarayonida o'rganish
7	Musobaqalarda o'zini tutishini o'rganish
8	Fan olimpiadalari jarayonida o'rganish
9	Ekskursiya jarayonida o'rganish
	2-bosqich (5-7-sinf)
1	Shug'ullanayotgan to'garagidagi faolligini o'rganish
2	Testlar o'tkazish
3	Fan olimpidalarida ishtirokini o'rganish
4	Tadbirlarda faoligini o'rganish
5	Musobaqalarda ishtirokini o'rganish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Barkamol avlod yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”¹ farmoyishi e‘lon qilinib unda barkamol yosh avlodni shakllantirishni ta‘minlash bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari hamda boshqa tadbirlarga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni davom ettirish bilan bir qatorda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi:

-bolalar hamda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni uyg‘un kamol toptirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, amaldagi qonunlar va me‘yoriy hujjatlarga zamon talablariga mos o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

-eng avvalo sog‘lom naslni, “Sog‘lom ona - sog‘lom bola” dasturini amalga oshirib borishni ta‘minlash, onalarning reproduktiv salomatligini saqlash, bolalar va o‘smirlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktik sog‘liqni saqlashni ustuvor darajada rivojlantirish, tibbiyot xizmatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi va uni tarbiyalash masalalari bo‘yicha aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini avj oldirish orqali sog‘lom avlodni shakllantirish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, yoshlarda sog‘lom va ahil oila qurishga intilish ishtiyoqini shakllantirish;

-o‘shib kelayotgan avlodni o‘qitish va tarbiyalash sohasida yaratilgan zamonaviy moddiy-texnika bazasidan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlash, zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida real iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida talab yetilayotgan ta‘lim va mutaxassisliklarning yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish hamda takomillashtirish, davlat ta‘lim standartlarini, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish;

-o‘quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini, yelektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy yetish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi 2010 yil.

ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini yeng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish;

-nafaqat maktablarda, litseylarda, kollej va oliy ta'lim muassasalarida, balki har bir oilaning hayotida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli hamda keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari, Internet tizimini tatbiq etish, o'zlashtirish va yanada rivojlantirish;

-yosh avlodning jismoniy tarbiyasi va bolalar sporti sohasida, yoshlarni, ayniqsa, qishloq joylarda qizlarni muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishga jalb yetish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni bosqichma-bosqich kuchaytirish, yangi sport komplekslari, stadionlar, inshootlar qurish, ularni zamonaviy sport anjomlari va uskunalari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan mustahkamlash;

-tarkibiy (texnik hamda texnologik) o'zgartirishlarning yeng muhim yo'nalishi, aholi daromadlari va mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish asosi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish va bu sohadagi mavjud muammolarni hal yetishning kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ayniqsa, qishloq joylarda yoshlarni, avvalambor kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb yetish uchun shart-sharoit yaratish;

-ilm-fanni yanada rivojlantirish, talantli, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb yetish uchun sharoit yaratish, ular tomonidan o'zlarining ijodiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish, jumladan, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish maxsus jamg'armasini tashkil yetish, Fanlar akademiyasi va mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari tizimida ilg'or, istiqbolli ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish uchun yangi laboratoriyalar yaratish, xorijiy ilmiy

markazlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

-yosh oilalarga g'amxo'rlik qilishni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, jismonan sog'lom va uyg'un kamol topgan yosh avlodni tarbiyalash ishida jamiyatning muhim, hal qiluvchi bo'g'ini bo'lgan, farzandlar shaxs sifatida shakllanib, Vatanga muhabbat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalanib, o'z xalqining munosib vakillari bo'lib yetishadigan, sog'lom hamda mustahkam oilani qurish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, tashqaridan kirib kelayotgan tuban «ommaviy madaniyat»ning turli illatlari xavfi va zararli ta'sirlaridan himoya qilish kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Bugungi kunda O'zbekistonda barkamol avlod tarbiyasi borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar ajdodlarimizning ezgu orzu maqsadlari monand ravishda olib borilayotganligining o'zida komil inson haqidagi ezgu qarashlar millat qonidagi buyuk ma'rifat bulog'i ekanligini ko'rsatib turibdi.

Insonning kamolot yo'li o'zligini izlash, topishdan boshlanadi. O'zini tanigan olamni taniydi. Ustozlar fikricha hazrat Navoiy "Kamol et kasbkim" deya da'vat qilganlarida komillik uchun juda zarur juda ko'p xususiyatlarni nazarda tutganlar. Kishi o'zini hirs, tama, nafs, g'aflat, nodonlik singari mayllaridan poklamasa, u hech payt komil bo'lolmaydi. Komillik uchun ulkan insoniy qalb, uni nurlantiruvchi so'nmas ishq va keng qamrovli tafakkur zarur. Bularsiz ma'naviy-ruhiy mukammallik va aqliy balog'at xususida so'z aytish mumkin emas. Bulardan qaysi biridir yetishmasa, hammomga kirib nopok chiqmoqday gap bo'ladi. "Olam uyi"da yashash uning fuqarosiga aylanishdir. Mir Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqyeiga ko'tarilishini xohlaganlar. Xuddi shu mavqyeni esa kamolotning oliy cho'qqisi deb belgilaganlar.

1.2. Bolalar ijodiyotini tashkil etish va ehtiyojlarini o'rganishni takomillashtirishda madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar katta rol o'ynaydi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar ayniqsa, madaniyat va aholi dam olish markazlari, mahalla guzarlari, sport inshootlari, kutubxonalarining imkoniyati katta. O'quv yurtlari asosan, bolalarga bilim, ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniyat va aholi dam olish markazlari ularning bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish bilan bir qatorda ularni ma'naviy, ahloqiy, ruhiy jihatdan oziqlantirib tarbiya beradi. Demak, yoshlar ma'naviy barqarorligini yo'lga solish, ularning shaxs sifatida yetuklik kasb etishi kelajakda ulkan vazifalarni amalga oshirishida madaniyat va aholi dam olish markazlari rahbarlari, xodimlari va murabbiylarning roli beqiyosdir. Chunki yoshlarning bo'sh vaqtida ixtiyoriy tarzda, o'z qiziqishlari, iste'dodi va qobiliyatlariga yarasha ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va uni uyushtirish madaniy-ma'rifiy xodimlarning murabbiylik mahorati va bilimga bog'liqligidir.

Bu ishlarda murabbiylikdan yana bir qator malaka va ko'nikmalarni ham talab qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar siyosiy, tarbiyaviy va madaniy ommaviy ishlar o'tkaziladigan havfsizliklarni chiqarish va konsertlar, kinofilimlar namoyish etiladigan maskanlar hisoblanadi. Umuman madaniy-ma'rifiy muassasalar muayyan hududdagi aholining boshini qovushtirishga jamiyat uchun zarur axborotni bevosita yetkazadigan, hatto keng ko'lamda axloqiy tarbiya olib borish mumkin bo'lmagan joydir. Mustaqil rivojlanish yo'lidagi izlanishlarga kirishgan vatanimizda milliy tiklanish va milliy ozodlik taraqqiy etish tarzi madaniy-ma'rifiy muassasalar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

Ijtimoiy tarbiya maskanlarining orasida doim dam olishni tashkil etishning alohida bir usuli sifatida paydo bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni bo'lakchadir. Chin ma'noda jamiyat a'zolarining har tomonlama yetuklikka erishishini xohlovchi jamiyat jadal taraqqiy etadi.

Bu kabi jarayonlarni olg'a surish, fuqarolar saviyasini nisbatan jamiyat ehtiyojlarining kuchaytirish odamlarning muayyan maqsad asosida kuchaytirish yaqinlashtirish, ularni madaniyat va aholi dam olish markazlariga birlashtirish.

Jamiyat a'zolarining qiziqishlari va ehtiyojlarini ixtiyoriy asosda, bo'sh vaqt sifatida qanoatlantirish usuli bilan, shaxsan tarbiyalash madaniy-ma'rifiy muassasalarining o'z oldiga qo'ygan vazifasidir.

Jamiyat o'z a'zolarini tarbiyalash uchun beriladigan barcha qadriyatlarni o'zi belgilaydi. Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi pedagog jarayonlar odamlarni, ayniqsa yosh avlodni muayyan qadriyatlar bilan qurollantirib, jamiyat uchun belgilangan maqsadlarda tarbiyalash bilan bog'liq.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarning ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy muassasa sifatidagi roli va qadri behad kattadir.

Bugungi milliy Respublikamizdagi rahbarlar yosh avlodni yangicha ijtimoiy ong bilan jamiyatning hozirgi talablariga mos o'zi yashayotgan jamiyat muhitining zaruriyatlariga javob beradigan, ya'ni vatanparvarlik ruhida himoyaga yetkazishni talab qiladi. Bu talabni amalga oshirishda viloyatlar markazlaridagi yagona teatr, muzey, kutubxonalar faoliyati kamlik qiladi.

Tumanlar markazlarida saqlanib qolgan madaniyat va aholi dam olish markazlari, mahalla guzarlarida istirohat bog'larida ommaga ijtimoiy madaniy tadbirlar o'tkazish taqazo qiladilar. Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar bo'lib turgan bir paytda, xalq uchun juda qimmat bo'lgan qadriyatlarni saqlab qolib, ularning o'zbek xalq mustaqilligiga xizmat qilishiga katta e'tibor berildi.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

Ijtimoiy madaniy ta'lim-tarbiya muassasalarining va yo'nalishlarini belgilaganda Respublikamizdagi hozirgi taraqqiyot jarayoni va undan kelib chiqadigan ehtiyojlarni xususiyatlari hisobga olinmoqda.

Davlat siyosatidagi mulk turlarining erkin bo'lishi madaniyat va aholi dam olish markazlarining xususiy turlarini paydo bo'lishi va rivojlanishiga imkoniyat bermoqda. Bunday muassasalardagi ish mazmuni komil insonlarni tarbiyalashga qaratilmog'i muhimdir. Bizning davrimizda milliy mafkurani barqaror etish eng asosiy maqsadga aylandi.

Bugungi kunda tashkil etilayotgan madaniyat va aholi am olish markazlari mahalliy xalqning milliy dunyoqarashi va ruhiyatiga, mentalitetiga, madaniyatiga mos, mahalliy sharoitiga yaqinlashtirilgan holda ish yuritmoqda. Madaniyat va aholi dam olish markazlarining xizmat faoliyatida bo'sh vaqtda ijtimoiy madaniy maqsadlarni amalga oshirish orqali foydalanish usullari, omillarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 martdagi PQ-1920-son qarori bilan tasdiqlangan "Obod turmush yili" Davlat dasturining 65-bandini bajarish yuzasidan hamda aholining, ayniqsa yosh avlodning o'sib borayotgan madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishini tashkil etishga ko'maklashish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo'yicha tadbirlar kompleksi kursatmaga muvofiq; Madaniyat va aholi dam olish markazlari to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan bo'lib¹.

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda maqbul binolarni (ko'p funksiyali zali bo'lgan), shu jumladan qishloq kinoteatrlari hamda idoralar, tashkilotlar va korxonalarining, sobiq kolxozlar va sovxozlarning foydalanilmayotgan binolarini qidirib topish va ularni madaniyat va aholi dam olish markazlariga ajratish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-son qarori.

Madaniyat uylari va klub muassasalarini maqbullashtirish natijasida bo'shab qoladigan binolarni saqlashni va ulardan samarali foydalanishni, ularga zaruriyat bo'lmagan taqdirda esa - ularni birja va birjadan tashqari savdolarida sotishni, shuningdek ulardagi mavjud, foydalanishga yaroqli musiqa asboblari va anjomlarning yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholining dam olish markazlari balansiga belgilangan tartibda berilishi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari to'g'risida Nizomda boshqa madaniyat muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qilib O'zbekiston Respublikasida madaniy hayotning ko'p qirraligini ta'minlashga da'vat etilgan madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatini tashkil etish va ularning ishlashi tartibini belgilaydi.

Aholining madaniy ehtiyojlarini o'rganish hamda madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar xususiyatga ega bo'lgan xilma-xil xizmatlar ko'rsatish, havaskorlik, badiiy ijod va amaliy san'at bilan shug'ullanuvchilar uchun shart-sharoitlar yaratish Markazning asosiy faoliyati hisoblanadi.

Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyruqlari va metodik ko'rsatmalariga hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

Markaz davlat muassasasi shaklidagi, turli yo'nalishlar, shakllar, turlar va janrlardagi madaniy-ijodiy, ma'rifiy va dam olish faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni ta'minlaydigan yuridik shaxs hisoblanadi.

Markaz mahalliy davlat hokimiyatining tegishli organlarida davlat ro'yxatidan o'tadi.

I tipda - xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo'lgan va kamida 400 o'rindiqli tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tumanning ma'muriy markazlarida;

II tipda - xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda - xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Shaharlarda va tuman markazlarida xizmat ko'rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib I, II va III tipdagi markazlar, qishloq joylarda esa - faqat II va III tipdagi markazlar tashkil etilishi mumkin.

Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

Markaz milliy an'anaviy madaniyatni saqlab qolish va o'rganishda jamoatchilik ehtiyojlarini o'rganish va qondirish, badiiy ijodni, boshqa havaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash, uning dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladi.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi ob'yektlarini saqlab qolish va ko'paytirish, zamonaviy studiyalar va to'garaklarni, shuningdek badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo'li bilan badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantirish (Markazning to'garaklari, studiyalari va jamoalari yo'nalishlari va nomlarining tavsiya etiladigan ro'yxati ilova qilinadi);

Aholining barcha qatlamlari tomonidan talab qilingan zamonaviy madaniy-ma'rifiy xizmatlarni keng yoyish, Internet-studiyalar, elektron resurslar, shu jumladan Internet vositasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari tashkil etiladigan ko'p funksiyali zallarda qiziqarli va maroqli tomoshalar, to'ylar va boshqa tantanali tadbirlar, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o'yinlar bo'yicha musobaqalar o'tkazilishini tashkil etish;

"O'zbekiston iftixori" va "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" shiorlari ostida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni, milliy adabiyot va san'atning taniqli arboblari, sportchilar bilan aholining, shu jumladan yoshlarning

estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uchrashuvlarni tayyorlash va o'tkazish, ushbu faoliyatga professional ijodiy guruhlarini va san'at arboblarni jalb etish;

- foto va amaliy san'atning doimiy va vaqtinchalik ko'rgazmalarini, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining mini-festivallarini o'tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash, shuningdek ularni ma'naviy qo'llab-quvvatlash va ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ'ib qilish;

- havaskorlik badiiy va amaliy ijod jamoalari, studiyalari va to'garaklari, xalq teatrlari, madaniy-bilish, tarix-o'lkashunoslik, ilmiy-texnik, tabiat-ekologik, madaniy-maishiy, kolleksiya-to'plash qiziqishlari va boshqa qiziqishlar bo'yicha filarmoniyalar, havaskorlik birlashmalari va klublar tashkil etish hamda ular ishini tashkil etish;

- mahalliy urf-odatlar va an'analarga muvofiq ommaviy teatrlashtirilgan bayramlar va tomoshalar, xalq sayillari o'tkazish;

Markazning imkoniyatlari doirasida, aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, unga ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan xilma-xil pulli xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan bolalarni to'garaklarga jalb etish;

- ijtimoiy-ijodiy buyurtmalar, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan boshqa shartnomalar bo'yicha turli madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda maslahat, metodik va tashkiliy-ijodiy yordam ko'rsatish, shuningdek qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish (musiqali asboblarni, rekvizitni ijaraga berish, repertuar-metodik materiallarni sotish va shu kabilar);

- madaniy-ijodiy, madaniy-bilish, dam olishning boshqa turlarini hamda Markazning asosiy vazifalariga muvofiq bo'lgan boshqa faoliyatni amalga oshirish.

Quyidagilar Markazning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi ob'yektlarini saqlab qolish, havaskorlik san'atini rivojlantirish bo'yicha davlatning madaniyat sohasidagi siyosati natijalarini aks ettiruvchi badiiy loyihalar va dasturlarni ijodiy mujassamlashtirish;

- xalq ijodiyoti janrlari, nomoddiy madaniy meros bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va havaskorlik san'atini rivojlantirish;

Markaz mutaxassislarining malakasini oshirish, doimiy ishlovchi ko'rgazmalar, studiyalar, mahorat darslari, seminarlar tizimi orqali ko'nikmalarni hosil qilish.

Markaz qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

Markaz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ushbu faoliyatdan olingan daromadlarni va ushbu daromadlar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etadi.

Markazning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi:

- intellektual faoliyat natijalaridan va unga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda foydalanish;

- madaniyat va san'at sohasida davlat dasturlarini va boshqa maqsadli dasturlarni amalga oshirishda belgilangan tartibda qatnashish;

- madaniy-ijodiy birlashmalar va uyushmalarga kirish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

- ushbu Nizomda belgilangan o'z vazifalarini qonunlar va O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq zarur tarzda bajarishga;

- mehnatga haq to'lashni tashkil etish, texnika xavfsizligi, xodimlarni ijtimoiy ta'minlash va aniq tarzda ijtimoiy muhofaza qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarini amalga oshirishga;

- xodimlarning, o'z to'garaklari, studiyalari qatnashchilarining, shuningdek mijozlarning huquqlariga rioya qilishni kafolatlashga;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tasdiqlangan, Markaz faoliyati ko'rsatkichlarini aniqlash va nazorat qilish uchun asos hisoblangan shakllarga muvofiq ish jurnalini yuritishga;

- o'ziga tezkor boshqarish huquqi bilan biriktirilgan mol-mulkning saqlanishini va undan qat'iy maqsadli foydalanishni ta'minlashga;

- tezkor boshqarish huquqi bilan birlashtirilgan mol-mulkning texnik holati yomonlashishiga yo'l qo'ymaslikka majbur (ushbu talab foydalanish jarayonida mazkur mol-mulkning normativ eskirishi bilan bog'liq yomonlashishiga tatbiq etilmaydi).

Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Markazni boshqarish va unga rahbarlik qilish

Markaz o'zi bevosita bo'ysunuvida bo'lgan madaniyat va sport ishlari bo'yicha viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) bo'limi tomonidan boshqariladi.

Madaniyat va sport ishlari bo'yicha tuman (shahar) bo'limi Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari bilan kelishgan holda Markaz ustavini tasdiqlaydi, Markaz direktorini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi, Markaz faoliyatining qonun hujjatlariga, ushbu Nizom talablariga hamda ustavda qayd etilgan maqsadlar va vazifalarga muvofiqligini nazorat qiladi.

Markaz faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish Direktor tomonidan amalga oshiriladi. Direktor bilan mehnat shartnomasini (kontrakti) madaniyat va sport ishlari bo'yicha tuman (shahar) bo'limi tuzadi.

Markaz direktori ustavga muvofiq va o'z vakolatlari doirasida Markaz nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi, muassasaning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi, Markaz faoliyati natijalari uchun javob beradi.

Markazda maslahat organlari: badiiy kengash, metodik kengash va shu kabilar tashkil etilishi mumkin.

I tipdagi Markazlar:

II va III tipdagi markazlarning muassasalariga tashkiliy-metodik rahbarlik qiluvchi metodik markaz, madaniyat va san'atning tayanch muassasasi hisoblanadilar;

- o'zining xizmat ko'rsatish tegrasiga kiradigan tuman markazi va aholi punktlarida yashovchilar o'rtasida turli ommaviy va madaniy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

- aholining, ayniqsa yoshlarning ehtiyojidan kelib chiqib to'garaklar, studiyalar, badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini hamda markazlar tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlarni tashkil etish yuzasidan II va III tipdagi markazlarni metodik qo'llanmalar, shuningdek yangi repertuar to'plamlari bilan ta'minlaydilar;

O'zbekiston Respublikasining milliy va kasb bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda II va III tipdagi markazlar kengroq jalb etilishini ta'minlaydilar;

II va III tipdagi markazlar bilan birgalikda nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini saqlash va targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lgan har yilgi tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining to'garak, studiya va jamoalari yo'nalish va nomlari

I. Badiiy havaskorlik ijodiyoti

Ashula va raqs ansambli, zamonaviy va bal raqslari jamoasi, folklor-etnografik ansambli, xoreografiya, teatr san'ati (qo'g'irchoq, drama va boshqalar), vokal-cholg'u ansambli, milliy cholg'u asboblari ijrochiligi (rubob, gijjak, nog'ora, doira, tanbur va boshqalar), karnay va surnay, xor va vokal, akkordeon

II. Milliy amaliy san'at

To'qish, bichish va tikish (zardo'zlik), pazandalik, musiqa asboblarini ta'mirlash III. Nomoddiy madaniy meros to'garaklari

Lapar, alla, o'lan ijrochiligi, "Baxshi va xalfa", maqomchilar jamoasi, xalq cholg'ulari jamoasi, dutorchilar jamoasi, askiya

IV. Studiyalar

Dizayn, teatr-studiya, ovoz yozish studiyasi (faqat Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida), xalq amaliy san'ati va tasviriy san'at studiyalari, qo'g'irchoq studiyasi, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xorijiy tillarni o'rganish hamda "Hamma narsani bilishni xoxlayman" studiyasi.

V. Ayollar yig'ini

Ayollar qiziqishlari bo'yicha muhokama uyushmalari

VI. Sport to'garaklari

Shaxmat-shashka, sog'lomlashtirish gimnastikasi (yoga, sheyping, fitnes va boshqalar), «Sog'lomlashtirish» uyushmasi, milliy xalq o'yinlari

Ushbu ro'yxat tavsiyaviy xarakterga ega. Aholining ehtiyoji va markazlarning moddiy-texnika bazasi imkoniyatidan kelib chiqib, boshqa to'garak, studiya va jamoalar tashkil etilishi mumkin.

Qonunchilikda belgilangan tartiblar asosida pullik to'garak, studiya va jamoalar ochilishi mumkin.

Yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha doimiy va muntazam faoliyat ko'rsatayotgan eng faol havaskorlik jamoalari va studiyalariga Madaniyat va sport ishlari vazirligining Hay'at qaroriga asosan "Xalq" va "Namunali" havaskorlik jamoasi unvoni beriladi. Mazkur jamoalarga "Xalq" va "Namunali" havaskorlik jamoalari Nizomiga asosan shtat birliklari ajratiladi va bu shtatlar mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlardagi tarbiyaviy ishlar uning qatnashuvchilari uchun muntazamlik harakteriga ega emas. Chunki, ularning qatnashuvchilari muntazam ravishda o'zgarib turadi. Bir tadbirda qatnashgan kishi, ikkinchi tadbirga qatnashmasligi mumkin. Shuning uchun ular kishilarga muntazam tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatidan mahrum.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi lozim bo'lgan kishilarning ijodiy tashabbusiga, ularning faoliyatiga tashkilotchilarning faoliyatiga tayanadilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining har bir tadbiri qatnashuvchilari ham tarbiyalovchisi ham tarbiyachi sifatida qatnashish imkoniyatiga egadir. O'quv yurtida esa tarbiyaviy ta'sir etish ob'yektni o'rganuvchilar, talabalar hisoblanib, ular faqatgina tarbiyalanuvchi sifatida namoyon bo'ladilar.

Shahar, tuman va aholi zid joylashgan har bir dahada madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Teatr, konsert tashkilotlari, hayvonot va istirohat bog'lari, botanika

bog'lari, sirklar va boshqalar tomosha muassasalari hisoblanadi. Madaniy-ma'rifiy ishlarni oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri aholi turar guzarlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda g'oyaviy, siyosiy, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Aholining turli guruhdagi kishilar, maktabdagi tarbiya yoshidagi o'quvchilar, yoshlar, o'smirlar, o'g'il va qizlar, erkaklar va ayollar, katta rol o'ynaydi, kampirlar, talabalar, yosh ishchilar, sanoat, transport aloqa vositalari va boshqa sohalarning ishchilari, chaqaloq, ho'jalik xodimlari, ziyolilar, uy bekalari va boshqalarni tushunamiz.

Aholining bu guruhlari har biri o'ziga xos shakl va usullaridan iborat tadbirlar uyushtirishni talab etadi.

Turli millatlarning faollari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni uyushtirishda eng avvalo ularning tilini, o'ziga xos xususiyatlari, ruhiyatini, turmush tarzini, an'analarini, urf-odatlarini, marosimlarini hisobga olish juda ham muhimdir.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari aholining doimo o'sib kelayotgan ma'naviy talabi, ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama qanday ekanligini qondirishga qaratilgan bo'sh vaqtini oqilona tashkil etishni nazarda tutgan holda g'oyaviy, siyosiy, madaniy, tarbiyaviy, ommaviy tadbirlarni uyushtiradi. Kishilarning o'zaro muloqatda dunyo qarashi turli tuman hayotiy masalalarni va siyosatdagi kundalik dolzarb muammolarni erkin muhokama qilish yo'li bilan madaniy-ma'rifiy muassasalar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda madaniyat va aholi dam olish markazlarning eng muhim vazifasi faollarning madaniy dam olishini uyushtirishdir. Bu muassasalar ommaning ko'ngilli hordiq chiqarishini uyushtirish maqsadida turmushimizda mavjud bo'lgan turli an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlarning bo'sh vaqtimizda dam olish soatlarini mazmunli o'tkazishga madaniy hordiq chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari oldiga qo'yilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga keldi va mustaqil

mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti, xalq xo'jaligi, fan, texnika, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, san'atning guruhlab rivojlanishi natijasida yanada takomillashib bormoqda.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining vazifalari va ular oldiga qo'yilgan talablar bir-birini to'ldiradi, boyitadi, tarbiyaviy ishlarni ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Madaniy-ma'rifatchilik kasbi inson faoliyatining barcha sohalari singari o'z xususiyatiga ega, ularning eng asosiy xususiyati madaniy-ma'rifiy ishlarni hayot bilan mustaqil vatanimizning o'ziga xos milliy siyostai bilan mustahkam bog'laganligidir.

Madaniy-ma'rifatchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishli, ishga hamma vaqt ijodiy yondashadigan kishilarni talab etadi.

Vatanimiz mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgandan beri sodir bo'layotgan o'zgarishlar natijasida kishilarning o'z-o'zini qayta anglashi, ota-bolalar merosiga alohida e'tibor bilan yondashishi, ahloqiy qiyofasi, fe'l-atvori o'zgarib, ma'naviy va madaniy ehtiyojlari kundan-kunga o'sib boryapti. O'zgargan sharoit shaxsga g'oyaviy ta'sir etishi, uning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun yanada yangiroq, samaraliroq vositalar va usullarni qo'llashni talab etadi. Bu bir tomondan ommani, uning ehtiyojlarini yaxshi bilishni ikkinchi tomondan madaniy-ma'rifiy ishlarning shakli va usullarini tashkillashtirib, yangilab borishni taqazo etadi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar pedagog faoliyatning boshqa turlaridan o'zining mazmunan murakkabligi, ko'p qirraligi, shaklan nihoyatda xilma-xilligi shu shakllarning o'ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketganligi bilan ham farq qiladi. Bundan tashqari madaniy-ma'rifiy muassasalarda ommaviy axborot va sanoat vositalari, texnika vositalari, ommaning havfsizligini rejali, ijodiy tashabbusini tashkil etishning o'ziga xos usullari ham qo'llaniladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazi xodimi barcha tarbiyachi pedagoglar qatori tarbiyaning hamma yo'nalishlari aqliy, mehnat, ahloqiy, iste'dod, estetik va jismoniy tarbiya masalalari bilan shug'ullanadi. Lekin u bunday ko'p qirrali

tarbiyaviy ishlarni maktab va boshqa o'quv yurtlari o'quvchi, murabbiylar faoliyatlarida bo'lganidek, asosan bir xil yoshdagi bir xil tayyorgarlikdan o'quvchilar yoki talablar bilan emas, balki, yosh kasb bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib boriladi.

O'quv yurtlarida tarbiya vazifalari asosan fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Madaniyat va aholi dam olish markazi xodimlari esa milliy mafkura va milliy g'oya tarbiya vazifalarini faollarning bo'sh vaqtda dam olishni oqilona uyushtirish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini va iste'dodlarini rivojlantirish maqsadida madaniy va ma'rifat maskanlarida tashkil etiladigan havaskorlik uchrashuvlarini ixtiyoriy mashg'ulotlari orqali va xilma-xil ommaviy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazi xodimi oldiga omma o'rtasida bilim taraqqatish, odamlarni ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyati va iste'dodlarini o'stirishda ularga yordam berish, mehnatsevarlarni moddiy hordiq chiqarishini uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan. Bilimlar targ'ibotchisi, ommaning mustaqil o'qib, bilim olishining tashkilotchisi hisoblangan madaniy-ma'rifiy xodim yuksak darajadagi dunyoqarash madaniyatini ya'ni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va falsafiy bilimlari majmuini egallagan bo'lishi kerak¹.

Madaniyat va aholi dam olish markazi xodimi uchun eng zarur bo'lgan bilim tarmoqlaridan biri bu pedagog bilimlar bo'lib, u olib boradigan ta'limiy hamda g'oyaviy tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati chuqur tushunib olishda, odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga uning yo'llari va vositalarini, bo'sh vaqt sharoitida odamlar o'rtasida o'zaro muloqot o'tkazishning eng samarali usullarini o'zlashtirib olib, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rganishda yordam beradi.

Odamlarda havas uyg'ota olish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini to'laroq qondira bilish san'atidir.

Bu san'at pedagog odobini egallab olishni ta'lim-tarbiya ishlarini uddalay boshlashni talab qiladi. Bunday bilim va ko'nikmalar asosida madaniy-ma'rifiy

¹ www.ziyounet.uz O'zbekiston ta'lim portali.

xodimning pedagogik mahorati shakllanadi, uning tarbiyachilik iste'dodi va qobiliyatlari o'stiriladi.

Madaniyat va aholi dam olish markazi xodimi malakaviy madaniyatining yana bir muhim ko'rsatgichi - bu psixologik bilimlaridir. Faqat psixologiya qonuniyatlarini puxta o'zlashtirish, tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish asosidagina samarali jarayonni to'g'ri ta'minlashi mumkin. Sog'lom avlodni tarbiyalash-buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy hayotini yuksaltirishda jahon andozalari darajasida bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan kuchli va qat'iyatli mutaxassislarni tarbiyalab, voyaga yetkazish ta'lim tizimining bugungi kundagi eng asosiy vazifasidir. Ta'lim tizimida ajralmagan xolda faoliyat olib boradigan madaniyat va aholi dam olish markazlari yoshlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini va ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim omillardan biri sanaladi. Shu boisdan bugungi kunda hukimatimiz tomonidan madaniyat va aholi dam olish markazlari yangi shaklda barpo etilib ularga bulgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Biz kabi yoshlarning ijodiy faoliyat olib borishimizga zamin yaratildi.

II. BOB RESPUBLIKA HUDUDLARIDA IQTIDORI VA QIZIQUVCHAN BOLALAR IJODIYOTIGA QARAB TANLAB OLISH VA UNING AMALIY JIXATLARI

2.1. Yoshlarning qiziqish va iqtidoriga qarab klassifikatsiya qilish

Shuni esda tutish kerakki, bola qanchalik iqtidorli bo'lgani bilan, uni o'qitish kerak. Ularni diqqatini jamlab o'tirishga, mehnat qilishga, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish lozim.

Iqtidorli bolalar ular ustidan o'tkazilgan bosimni, zo'ravonlik, do'q po'psani ko'tara olmaydilar, bu esa turli muammolarga olib kelishi mumkin.

Iqtidorli bolalarni maktabgacha yoshidan boshlab, ijodiy mehnatga jalb qilish, ijod qilishi uchun sharoit yaratish, uni butunlay band qila oish lozim. Iqtidorli bolalar o'z istedodlarini rivojlantirishlari uchun vaqtdan va vaziyatlardan bemalol foydalanishlari, kengaytirilgan o'quv rejasi asosida tahsil olishlari va o'z o'qituvchilari tomonidan individual tarzda diqqat va e'tiborga ega bo'lishlari talab etiladi. Katta hajmdagi vaqtinchalik chegaralar muammoli – qidiruv ildizlarini rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Nimani o'rgatishga emas, balki qanday o'rgatishga e'tibor qaratish lozim. Agar iqtidorli o'quvchilarga vaqtdan bemalol foydalansa, ya'ni masalani yechishda shoshmasdan, undan bunga sakrab ketmasdan harakat qilsa, u o'zaro bog'liqliklar sir asrorini a'lo darajada o'zlashtirib, bularni o'z amaliyotida qo'llaydi. Cheksiz imkoniyatlar, kiritilgan tatakliqlar va mulohazalarni analiz qilish, muammoni ichiga kirish tabiiy qiziquvchanlikni va tirishqoqlikni hosil qiladi, tanqidiy va analitik fikrlashga olib keladi.

Har qanday iqtidorining eng umumiy alomatlari quyidagilardan iborat:

1) bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni hosil qilishda nisbatan tez siljish. Bola ishdan ertaroq qutilish maqsadida hamma narsani naridan beri bajarishga uringandagi shoshqaloqlikni tezlik bilan chalkashtirib yuborish yaramaydi. Shu bilan birga tabiatan sustkash kishilar bilan epchil kishilardan ham oldin ulgirishi ehtimoldan holi emas. "Asta yursang, uzoqqa borasan", degan maqol, aftidan, shular haqida bo'lsa kerak. Lekin, ko'ramizki, bu holatda ham ayniqsa, o'qish va mehnat uchun katta vaqt oraliqlari olingan hollarda nisbiy tezlik

qolaveradi.;

2) bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdagi nisbiylik, qobiliyatli kishilar biror narsani tushunishda, materialni esada olib qolish, fikran qayta ishlash va shu kabilarda unchalik qiynalmaydilar. Ish qanchalik osonlik bilan bajarilsa, kasb egallash jarayoni ham shunchalik sifatli boradi. Bundan tashqari, bilimlarni va kasbni egallashdagi osonlik kishiga quvonch bag'ishlaydi, optimistik kayfiyat tug'diradi, bu esa o'qish va mehnatning samaradorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan, o'qishdagi yuksak muvofaqqiyatlar keyinchalik bilimni yanada oshirish jarayonini yengillashtiradi.;

3) bilimlarni egallash; ko'nikma va malakalar hosil qilishdagi ijodkorlik elementlari. Qobiliyatli o'quvchi fahm farosatlilik ko'rsatadi, original fikr aytadi yoki masalani ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan yo'llar bilan yechishga erishadi, rasm chizishda orginallik ko'rsatadi.

4) Bilimlarni egallash, yaxshigina ko'nikma va malakalar hosil qilish. Qobiliyatli bolalar qobiliyati pastroq bolalar bilan bir xil sharoitda ham maxsus, rivojlanishda ancha yuqori darajaga erishadilar. Bilimlarni sekin egallash hamma vaqt ham sifatini oshib borishiga olib boravermaydi. Bilimlarni tez va yaxshi egallash – yuksak qobiliyatining haqiqiy ko'rsatkichidir. Bilimlarni yaxshi egallash – chuqur, ijodiy o'zlashtirish demakdir¹.

Ma'lumki, bugungi kunda qiziquvchan bolalarga e'tibor berish, kelajakda jamiyatdagi madaniyatni, ilm – fan rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu borada kattalarning muhim vazifasi bo'lib; bolalarni bee'tibor qoldirmaslik, qiziquvchan bolalarni ehtiyojlariga qarab rivojlanishiga yordam berish, ularning intellektual va ijodiy faoliyatida nafaqat shaxsiy ahamiyat kasb etadi, balki ijtimoiy muammo bo'lib hisoblanadi.

O'quvchining iqtidorlilik darajasini baholash usullari.

Iqtidorli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ularga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar quyidagilardir:

1 bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (eshitish, ko'rish,

¹ Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.–T.: O'qituvchi, 2004.-101b.

o‘qish, yozish, fikr yurutish, muloqat qilish va boshqalar);

2 atrofida kechayotgan iki yoki bir necha voqelikni birday qabul qilish (o‘qituvchining ma’ruzasini eshitgan holda sinfdagi har bir o‘quvchi faoliyatini kuzata olish);

3 o‘ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea hodisa mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko‘p savollarning berilishi);

4 miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to‘xtovsiz faoliyat ko‘rsatib, nihoyatda kam vaqt “dam oladi”, shuningdek, bilish jarayonidanoaniqliklar ko‘zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik iqtidorli o‘quvchilarga xos xususiyat emas);

5 nutqi va fantaziyasining boyligi (iqtidorli o‘quvchilarining aksariyati juda erta gapirishni o‘rgangan, ularning nutqi kutilgandan ko‘ra yuqori, shuningdek, ularda fantaziya qobiliyati nihoyatda kuchli);

6 kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, jumladan, dostonlarni bir marta o‘qish bilan to‘laligicha yodlab olib, uni so‘zma – so‘z qayta hikoya qilib berish qobiliyati) ga egalik kabilar alohida o‘rin tutadi

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bugungi kunda iqtidorli bolalarni aniqlash borasida katta tajribalarga ega. Ta’lim tizimida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularga ta’lim berishga oid ko‘plab metodikalar mavjud.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ham ixtisoslashgan maktablarni shakllantirish va ularda ta’lim – tarbiya samaradodligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda Respublika uzluksiz ta’lim tizimida muhim o‘rin tutgan o‘quv muassasalari ham alohida o‘rin tutib, ular quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib bormoqdalar: ijtimoiy fanlar; gumanitar fanlar; matematika; fizika; kimyo; biologiya; xorijiy tillar; musiqa; sport; raqs.

Qo‘shimcha ta’lim muassasalari sifatida e’tirof etilgan ixtisoslashgan maktablar esa quyidagi yo‘nalishda samarali faoliyat olib bormoqda: radiohavaskorlik; xalq amaliy san’ati; tasviriy san’at; musiqa; raqs; maishiy xizmat ko‘rsatish.

Ixtisoslashgan ta’lim muassasasi faoliyatida samaradorlikni ta’minlash

murakkab, yuqori darajada mahoratli bopshqaruvni taqazo etuvchi jarayon bo‘lib, bu jarayon samarasi quyidagi shaxslarning xatti – xarakterlar mazmuni, maqsad va yo‘nalishlari asosida baholanadi: ta’lim muassasasi direktorining faoliyati; direktor o‘rinbosarlarining faoliyati; rahbar organlarining faoliyati; pedagogik jamoaning umumiy faoliyati; pedagogik xodimlarning individual faoliyatlari; o‘quvchilarning faoliyati.

Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitishga ixtisoslashgan ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligini quyidagi mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

1. Ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining o‘quv predmetlari bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi.

2. Ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining maxsus fanlar bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi.

3. O‘quvchilarning xalqaro, respublika, viloyat, shahar va tuman miqyosida tashkil etilgan fan olimpidalari, turli yo‘nalishlardagi ko‘rik tanlov va musobaqalardagi ishtiroki ko‘rsatkichi.

4. Ixtisoslashgan maktabning ixtisoslik bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichi.

Asoslovchi tajribaning tashkil etilishi iqtidorli bolalarni o‘qitishga ixtisoslashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganish ularda olib borilayotgan o‘quv va tarbiya ishlari samaradorligini yanada oshirish borasida hal etilish zarur bo‘lgan muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan: iqtidorli o‘quvchilarni izlab topish va ularni ixtisoslashgan maktablarga jalb etish borasidagi tajribaning yetarli emasligi; joylarda mazkur masalaga birdek ahamiyat berilmayotganligi; iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitishga ixtisoslashgan maktablatning faoliyatini boshqarishga nisbatan ilmi yondoshuvning qaror topmaganligi; bu kabi ta’lim muassasalarida malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojning to‘la qondirilmayotganligi; aksariyat ta’lim muassasalarining iqtidorli o‘quvchilarning samarali o‘qitishga imkon beruvchi maxsus dasturlarga ega emasliklari; oila va ta’lim muassasalari o‘rtasida mustahkam hamkorlikning qaror topmaganligi.

Iqtidorlilik shaxsning psixologik va fiziologik xususiyatlari sifatida nomoyon bo‘lar ekan, ayni vaqtda shaxsning o‘ziga xosligi individualligini ifodalaydi. Individuallik o‘z navbatida u yoki bu yo‘nalishlaridagi iqtidorning yorqin ko‘zga tashlanishida yetakchi omil hisoblanadi. Muamoni nazariy va amaliy o‘rganish natijasi individuallikning quyidagi elementlardan tashkil topishini ko‘rsatadi: motivatsiya, temperament, qobiliyat va xarakter, hissiyotga boylik, faollik o‘z – o‘zini boshqarish hamda yo‘nalganlik.

Olib borilgan tajriba – sinov ishlari iqtidorli bolalarni tanlash va ularni ixtisoslashgan ta’lim muassasalariga jalb etishda ularning quyidagi umumiy psixologik xususiyatlarga ega ekanliklarini inobatga olish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi:

1. Shaxs individualligining yorqin ko‘zga tashlanishi.
2. Shaxsning faolligi va o‘zini – o‘zi boshqara olishi
3. Asab tizimining kuchli bo‘lishi, jiddiylik va sovuqqonlik
4. Asab tizimining nisbatan kuchsiz bo‘lishi va o‘ta ta’sirchanlik

Olimlar iqtidorli bolalarni eng dolzarb muammolarga, ularni iqtidorli, shaxsiy va ijtimoiy muhim jihatlaridagi faoliyatlarini kiritadilar.

Iqtidorli bolalar va o‘smirlar Internet yordamida boshqalar bilan o‘zaro muloqatga muvoffaqiyatli kirishsada, biroq muloqotning bunday turi uning an’anaviy shaklidan birmuncha farq qiladi.

Birinchi, turkum kommunikativ maqsadlarning mazmuni o‘zgaradi, yuksak darajada rivojlanishi zarur bo‘lgan ijtimoiy – perseptiv, emotsional jarayonlar ijtimoiy moslashuv kabi murakkab mexanizmlar kommunikativ harakatlarda modifikatsiya qilinadi yoki qo‘llanilmaydi.

Ikkinchi, kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish usullari o‘zgaradi.

Iqtidorli o‘quvchi bilan qanday ishlash kerak? Bu — ko‘pchilik o‘qituvchilar oldida muammo bo‘lib kelayotgan savol. Har bir sinfda iqtidorli bolalar bor. U qanday bola? Iqtidorli bola — ziyarak, qiziqqon, xotirasi kuchli, e’tiborli, mantiqiy fikrlaydigan, ko‘p savol berib, bilishga intilayotgan, turli masalalarni tez va oson yecha oladigan o‘quvchidir. Aqliy sog‘lom bolalarni oddiy, iqtidorli va o‘ta iqtidorli

guruhlarga ajratish mumkin.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o'quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi», deyilgan. Bu vazifalarni bajarish har birimizdan tinimsiz mahorat va ijodiy izlanishni talab etadi.

Qobiliyat – insonning individual salohiyati va imkoniyatlaridir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malaka oshirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyalarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilishlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada nomoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, mazsus ta'lim berilishi, qatiylik, salomatligining yaxshi bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turib so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shundan ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalgam oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam

bilimlar tarkib topish uslublari yoʻqligiga asoslanib jiddiy tekshirib koʻrilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yoʻq, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi boʻladi¹.

Qobiliyat bilim va malakalarning oʻzida koʻrinmaydi, balki ularni egallash tizimida nomoyon boʻladi yaʼni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim boʻlgan bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengila va mustahkam amalgam oshirishda namoyon boʻladi.

Qobiliyatlar individual psixologok xususiyatlar boʻlishi bilan aql sifatlari xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama – qarshi qoʻyib boʻlmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qoʻyish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yigʻindisi faoliyat talalariga javob bersa yoki bu talablar taʼsiri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashga asos boʻladi.

Iqtidor tushunchasi turli manbalarda turlicha tarzda tavsiflanadi. Jumladan: Iqtidor – (arabcha) kuch – quvvat, qudrat, qodirlik, qobiliyat kabi maʼnolarni anglatadi.

Iqtidor – deb insonning oʻz xatti – xarakatlariga nisbatan subektiv munosabatiga aytiladi. Biror soha boʻyicha layoqatini ongli ravishda sezfan odam oʻzidagi oʻzidagi qobiliyatini toʻla namoyon qilish uchun qatʼiylik koʻrsatadi.

Shunday ekan, iqtidor tushunchasiga “Shaxsning oʻz qobiliyati va layoqatlari asosida birir fan yoki soha doirasida bilimlarining rivojlanganligi va uni namoyon eta olish shakli” deb taʼrif bersak toʻgʻri boʻladi.

Istedod tushunchasiga taʼrif berilganda uning tugʻma xarakteri hisobga olinadi. Istedod biror narsaga salohiyta, salohiyat esa xudo tomonidan berilgan qobiliyat sifatida qaraladi. Boshqacha qilib aytganda, istedod – bu xudo tomonidan beriladigan ish faoliyatida katta muvaffaqiyatni taʼminlovchi tugʻma qobiliyat.

Layoqat – bu qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon boʻladigan, miya tuzilishining sezgi aʼzolariga va funksional

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori “Oʻzbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy ragʻbatlantirish toʻgʻrisida” –T.: 2008 yil 13 oktyabr

xususiyatlariga aytiladi.

Layoqatli bolalar o'zlarini yoshligidan namoyon eta boshlaydi, biroq o'qituvchilar bu xislatlarni hardoin ham qullab quvvatlamaydi, chunki bu bolalar isyonchilikka moyil, umumiy tartib – qoidalarga rioya qilmaydiganlar toifasidandir.

Iqtidorli bola o'zining mavqei, faoliyatining individualligi, faolligini muayyan darajada “boshqarish” bilan shaxs sifatida o'zgalardan yaqqol ajralib turadi. Iqtidorli bola shaxsining fazilatlarini bilish ayniqsa, faoliyatida erishayotgan yutuqlari ma'lum vaqtgacha nomoyon bo'lmasa, uning “yashirin qobiliyat” larni anglash birmuncha mushkul kechadi. Bolaning o'ziga xos shaxsiy fazilatlari bilan qobiliyatning o'zaro bog'liqligini o'z vaqtida anglash, pedagoglar va maktab psixologlarini bunday toifadagi bolalarning yuqori imkoniyatga egaligini taxmin qilishlariga turtki bo'ladi. Ana shunday yuqori imkoniyatga ega bolalarning shaxsiy fazilatlariga bevosita tavsif berishdan avval, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi ba'zi omillar hamda shaxsning tarkibiy qismlari bilan tanishishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtidorli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ularga xos bo'lgan eng muhim didaktik asoslar quyidagilardir.

1. Nodir qobiliyatlarni namoyon eta olish
2. Yuksak natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlariga egalik
3. Bir yoki bir necha yo'nalishlarga (aqliy salohiyat bilimlarni egallashdagi o'ziga xos ijodiy tafakkur tasviriy yoki amaliy san'atga bo'lgan layoqat muayyan natijalarni qo'lga kiritganlik kabilar)

Iqtidorli bolalarga ega bo'lgan nodir qobiliyatlar orasida :

- bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish Masalan: eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, muloqat qilish va boshqalar.

- Atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni baravariga qabul qilish (jumladan o'qituvchining ma'ruzasini eshitgan holfa sinfdagi har bir o'quvchi faoliyatini kuzata olish)

- O'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea hodisa mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollar berish)

- Miya faoliyatining biyokimyoviy va elektrik faolligi (miya dearli to'xtovsiz faoliyat k'rsatib nihoyatda kam vaqt dam oladi. Shuningdek, bilish jarayoni noaniqlik ko'zga tashlansa ular tezda bartaraf etiladi. Uyquchanlik iqtidorlilarga xos xususiyat emas.)

- Nutqi va fantaziyasining boyligi iqtidorli bolalarning aksariyati juda erta gapirishni o'rganadi.Ularning nutqi kutilganda ko'ra yuqori.Shuningdek ularda fantaziya qobiliyati nihoyatda yuqori darajada bo'ladi.

- Kuchli xotiraga egalik kabilar alohida o'rin tutadi.

Iqtidor mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga bo'linadi. Qayd etilgan xislatlar umumiy iqtidorga xosdir. Umumiy iqtidor yaxlit holda kamdan kam kishilardagina namoyon bo'ladi. Insoniyat tarixida bu kabi nodir xislatga ega kishilar sifatida A.Makedoniskiy va Napolion Banoport nom qozonganlar.

Masalan: yozilishicha ular bir vaqtning o'zida yetti xil faoliyatni bajara olganlar.

Maxsus iqtidor turliko'rinishdagi faoliyatlar masalan texnika musiqa tasviriy san'at adabiyot bo'yicha namoyon bo'ldi.

Umumiy yoki maxsus iqtidorga ega bolalarga ta'lim va tarbiya berish o'ta murakkab jarayon.Shu jarayonni muvofaqiyatli tashkil etish borasida xalqaro tajriba to'plangan. Mavjud tajribaga tayangan holda mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ixtisoslashgan ta'lim muassasalarini shakillantirish va ularda ta'lim tarbiya samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda ixtisoslashgan umum o'rta ta'lim muassasalari quyidagi yo'nalishda faoliyat olib bormoqda.

- ijtimoiy
- gumanitar
- matematika
- fizika

Iqtidorli bolalarni tanlash va ularga ta'lim berish.

Ta'limiy islohatlar jarayonida iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash ularni rag'batlantirish masalalariga ham katta e'tibor berilmoqda.

Qanday o‘quvchilar “iqtidorli talabalar” deb ataladi.? Ular tengdoshlardan qanday xususiyatlarga ko‘ra farqlanadilar. Iqtidorli o‘quvchilarni qanday aniqlash mumkin? Ular bilan ishlashda nimalarga alohida e’tibor berish kerak¹.

Pedagogik va psixologik manbalarda “qobiliyat”, “istedod” tushunchalari birdek qo‘llaniladi. Ularda qyd etilishicha qobiliyat – shaxsning osonlik bilan biron faoliyat egallay olishni ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat. Istedod – shaxsning ma’lum faoliyatida ifodalanadigan qobiliyatning yuqori darajasi. Mazkur tushunchalarning muqobili sifatida “iqtidor ” tushunchasi ham keng qo‘llaniladi. Demak, qobiliyat, istedod va iqtidor tushunchalarining mohiyati:

- muayyan faoliyat va uni bajara olish darajasi;
- shaxsning individual xususiyatida ko‘zga tashlanadi.

Quyidagi 3 jihat shaxs iqtidorni aniqlashda yetakchi mezon bo‘lib xizmat qiladi.

1. Bilish imkoniyatining yuqoriligi (ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan layoqatning bir vaqtda yuzaga kelishi, bir vaqtning o‘zida bir necha faoliyatni bajara olish yoki ikki va undan ortiq hodialar jarayonida ishtirok eta olish)

2. Yuqori darajadagi ruhiy rivojlanish (psixologik jihatdan barqarorlik jamoa o‘rtasida o‘zini tuta bilish o‘zini yo‘qotmaslik) behuda hayajonga berilmaslik irodaning mustahkamligi, xarakterning to‘laqonliligi komunikativ aloqa ko‘lamining kengligi va boshqalar.

3. Favqulotdagi jismoniy ko‘rsatkich ma’lum jismoniy yuklamalarni bajarishda qiyinchiliklarni his qilmaslik, tengdoshlaridanfarqli ravishda yoshiga nisbatan bir necha barobar murkkablikdagi jismoniy mehnatni bajara olishi va boshqalar.

Demak, iqtidorli bolalar yuqori darajada bilish psixologik va jismoniy ravishda ko‘rsatkichlarini nomoyon etuvchilardir. Iqtidorli bolalarni tanlash murakkab jarayon bo‘lib uni tashkiliy jihatdan to‘g‘ri amalga oshirish talab etiladi. Jahon pedagogikasi iqtidorli bolalarni aniqlash bo‘yicha muayyan tajribalarga ega bo‘lsada iqtidorlik darajasini aniq belgilovchi yagona metodika mavjud emas. Ayni vaqtda

¹ Yo‘ldoshev J.G’, Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.–T.: O‘qituvchi, 2004.-145-b.

individual farqlar hamda shaxsiy o'ziga xos xususiyatlarni belgilashda psixometriya darsida bir qator metodlardan foydalanilmoqda¹. Tajribalar sifatida iqtidorli bolalarni tanlashga bo'lgan quyidagi 2 yondoshuv alohida ahamiyatga ega:

1. Yagona baholash tizimiga muvofiq aniqlash
2. Bola shaxsini yaxlit o'rganish va uning faoliyati mazmuni, majmuaviy baholash tizimi.

Yagona baholash tizimi bolaning ma'lum xususiyati yoki faoliyatning ayrim oigan jihatlarni o'rganish va baholashga yo'naltiradi. Bu holatda maxsus testlardan individual foydalaniladi. Bola shaxsini turli sharoit va yo'nalishlarda o'rganiladi.

Bola shaxsini yaxlit o'rganish va uning faoliyati mazmunini majmuaviy baholash tizimiga muvofiq kichik bolalar guruhlarida amalgam oshirilgan. Test natijalari, sinf rahbari tomonidan muayyan bolaga berilgan taqdimnoma mazmuni, shuningdek, nomardlar davrasidagi mavqeyi mantiqiy fikrlash layoqati nutq boyligi, u yoki bu faoliyatni bajarishdagi harakatlarning aniqligi to'g'riligi va boshqa xislatlar asosida bola iqtidorining darajasi baholanadi.

Iqtidorli bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan umum o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish ularda olib borilayotgan o'quv va tarbiyaviy ishlari samaradorligini yanada oshirish borasida hal etilish zarur bo'lgan muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan;

1. Iqtidorli o'quvchilarni izlab topish va ularni ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga jalb etish borasidagi tajribaning yetarlimasligi.
2. Joylarda mazkur maqsadga birdek ahamiyat berilmasligi.
3. Iqtidorli bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishga nisbatan ilmiy yondoshuvning qaror topmaganligi.
4. Shu kabi ta'lim muassasalarida malakaviy mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarning to'la qondirilmaganligi.
5. Aksariyat ta'lim muassasalarining iqtidorli bolalarni samarali o'qitishga imkon beruvchi maxsus dasturlarga ega emasliklari.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 225-sonli qarori "Bolalarning san'at va madaniyat sohasidagi qobiliyat hamda iqtidorini barvaqt aniqlash, rivojlantirish bilan shug'ullanadigan nodavlat tashkilotlarni rag'batlantirish to'g'risidagi" –T.: 2008 yil 13 oktyabr

6. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida mustahkam hamkorlikning qaror topmaganligi.

Ta'kidlab o'tilgan muammolar ijobiy hal etilishi iqtidorli bolalarning individual va shaxsiy xususiyatlarni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Iqtidorli bolalarni aniqlash davomiy jarayon bo'lib, shaxsning rivojlanishini chuqur tahlil qilish bilan bog'liq. Bunda qator psixologik-pedagogik talablar mavjud:

– bolaning o'zini tutishi va faoliyatini kompleks baholash, bunda imkon qadar ko'proq bolaning qobiliyatlari va turli axborot manbalaridan foydalanish;

– identifikatsiyalash (o'xshatish) jarayonining davomiyligi (turli vaziyatlarda bolaning o'zini tutishini kuzatish);

– bolaning qiziqish va layoqatlariga mos keladigan faoliyat doirasida o'zini tutishini tahlil etish (maxsus tashkil etilgan o'yin-mashg'ulotlarga jalb etish);

– bolaning faoliyatiga ekspert baho berish (rasmlari, yozgan she'rlari, texnik modellari, matematik masalalarni yechish usullari.), bunda yuqori malakali sohaga oid ekspert-mutaxassislarni (matematiklar, filologlar, shaxmatist va muhandislar) taklif etish.

– har bir bolaning individualligini hisobga olgan va turli psixodiagnostik metodikalarni qo'llagan holda tashxis qilishning ko'p bosqichli va takroriy usullaridan foydalanish;

– tashxis ishlarini real hayot va faoliyat doirasida (kuzatish, suhbat, o'qituvchilar va ota-onalarning ekspert bahosi) amalga oshirish.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda shu yosh davrdagi iqtidorning rivojlanishi darajasini, iqtidorning turli faoliyat doirasida amalga oshirish xususiyatlarini, bola rivojlanishining potentsial imkoniyatlarini differentsiatsiya (tabaqalashtirish) qilish talab etiladi.

Yosharning intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'рни muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tadbiiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va

iste'dod, barcha yoshlarimizga tug'mat talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, maalla, o'quv muassasalari va korxonalar, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi.

Iste'dod tushunchasining asosiy mazmuni "qobiliyat» degan tushunchani ham anglatadi. Bizningcha, amaliyotda qo'llaniladigan «qobiliyat» tushunchasi uchta asosiy qismga ega.

Birinchidan, qobiliyat psixologik o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lib, bir odamni boshqasidan farqdaydigan qobiliyat tushuniladi, barcha odamlarga xos bo'lgan qobiliyat xaqida gap ketganda hech kim bu iborani ishlatmaydi. "Qobiliyat" so'zi marksizm-leninizm asoschilari bashorat qilganidek bu - «Har kim qobiliyatiga yarasha» degan shiorda qo'llanilgan, xolos.

Ikkinchidan, qobiliyat iborasi umuman olganda odamdagi o'ziga xos har qanday turli xususiyatlarni anglatmay, balki faqat turli faoliyatlarni bajarishda erishgan muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, ba'zi odamlar shubhasiz o'ziga xos fazilatlarga ega: jizzakilik, lanjlik, yalqovlik kabi xususiyatlarni odatda qobiliyat deb bo'lmaydi, chunki har qanday faoliyatda ham har doim muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Uchinchidan, «qobiliyat» tushunchasi ayrim shaxslarda, ya'ni uning bilimi yoki bilarmonligiga qarab belgilanmaydi. Ko'pincha, pedagog o'quvchining faoliyatidan uncha qoniqmasada, lekin shunga qaramay yaxshi o'zlashtirolmayotgan bola boshqa o'rtoqlaridan ortda qolmay fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilishi bilan o'qituvchini xursand qiladi. Pedagog o'zining noroziligini o'quvchi bilan yetarlicha shug'ullanmasligini asoslab o'quvchining «qobiliyatiga e'tibor berib», o'quvchi bilan ko'proq shug'ullansa bilimni yaxshi o'zlashtira olish qobiliyati bor degan xulosa keladi.

Har qanday yosh ishchini tashkiliy ishga nomzodlikka ko'rsatib va bu ko'rsatishni «yaxshi tashkiliy qobiliyat» bilan asoslashadi, albatta, «tashkiliy qobiliyat»ga ega bo'lish bu - «tashkiliy mahorat va bilarmonlik»ka ega degani emas

ekanligi haqida o'ylashmaydi. Balki aksincha bo'lib chiqishi ham mumkin: hali tajribaga ega bo'lmagan yosh xodimni «tashkiliy qobiliyati»ni asoslab nomzodlikka ko'rsatishganda balki u hali shu davrda yetarli malaka va tajribaga ega bo'lmasligi mumkin- u, lekin o'zining bilimdonlik qobiliyati tufayli tez orada malaka va tajriba orttirib, muvaffaqiyatga erishishi ham mumkin.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, hayotda qobiliyat tushunchasi ostida odatda mavjud bo'lgan bilim, mahorat va malakadan iborat bo'lgan, lekin, bu bilim va mahoratlarga tez va oson erishishni anglatadigan o'ziga xos xususiyatlar ko'zda tutiladi.

Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki, qobiliyatni biz «har bir insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari» deb aniqladik, shuning uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo'lgan tabiiy xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat anatomo-fiziologik xususiyatlar, ya'ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste'dod bo'lishi mumkin, qobiliyatning o'zi ham doimiy rivojlanish natijasida paydo bo'ladi.

Shuni aytish mumkinki, qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabo'l qilmay, biroq biz ko'p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba'zi insonlarda tabiiy xususiyat, ya'ni iste'dod ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zida «haqiqiy», «tabiiy», «tabiatdan berilgan» va shunga o'xshash so'zlar bilan aytilganda – «tabiiy»» tushunchasi, - qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlilda bir-biriga bog'liq.

Ko'p hollarda biz tabiiylikni iste'dod rivoji asosida yotgan qobiliyatni tushunamiz. Balki kimdir biror joyda amaliy so'z ishlatishda, u yoki boshqa biror narsani - tabiiy xususiyatni qobiliyat deb ta'kidlashi mumkindir. Go'dak tug'ilgan vaqtda mavjud bo'lgan «garmonik his» yoki «musiqaga bo'lgan tuyg'u» haqida o'ylash dargumon. Ehtimol, harqqanday idrokli inson, tug'ilgan daqiqadan boshlab, musiqaga bo'lgan tuyg'u yoki o'zaro his-tuyguning rivoji asosida faqat iste'dod nishonalari, qiziqish yoki shunga uxshash tuyg'u mavjud deb o'ylash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, tabiiy iste'dod nishonalari haqida gan ketganda, biz hali meros bo'lib qolgan iste'dod nishonalari haqida so'zlaganimiz

yo'q. Bu ikki tushunchani bir-biriga tenglashtirishdagi yakuniy xulosa hatto haddan tashqari keng tarqalgan. "Tabiiy" tushunchasi bilan "meros bo'lib qolgan" tushunchasi bir xil ma'noni anglatishi taxmin qilinishi, albatta, notug'ri. Chunki bola tug'ilishdan oldin ona qornida rivojlanadi. "Meros" va "meros bo'lib qolgan" tushunchalari, psixologik adabiyotda, faqat ko'rsatilgan ajdodlari belgisi meros bo'lib qolgan deb o'ylasakda, o'shanda ham, tarbiya va o'qitishning tug'ri natijasi emasligini ko'rsatmoqchi bo'lishsa ham, yoki, ba'zi organizmning fiziologik yoki biologik xususiyatlari bu belgi bilan jamlanishini taxmin qilishga haqiqiy asos bo'ladi. "Meros bo'lib qolgan" tushunchasi, shunday qilib, nafaqat "tabiiy" so'zini, balki "biologik", "fiziologik" va shunga o'xshash so'zlarni sinonimidir.

Bunday turdagi terminologiyaning tug'ri va aniq emasligi asosiy ma'noni bildiradi. "Meros bo'lib qolgan" termini daliliy aniq tushunchasiga ega, shuning uchun ham bu termini katta ehtiyotkorlik bilan, faqat aynan shunday tushunchani keltirish mumkin bo'lgan jiddiy asoslar bor joyda qo'llaniladi.

Ta'kidlash lozimki, qobiliyat o'zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda paydo bo'ladi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o'zining rivojlanishdan oldin mavjud bo'lganligidek, hamda qobiliya o'zining to'la rivojiga yetib, o'zining rivojlanishi to'xtashi haqida so'zlash aslo mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak.

Qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud deb, biz bu rivojlanishni u yoki boshqa amaliy yoki nazariy faoliyat jarayonida amalga oshishini nazardan chetda qoldirshimiz mumkin emas, albatta. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida paydo bo'lmaydi. Faqat uni psixologik tahlil yo'li bilan biz ularni birg- biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo'llaniladi degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go'dakda absolyut eshitish qobiliyati tovush balandligini bilish birinchi bor dunyoga kelishidan oldin mavjud emas. Ungacha faqatgina anatomo-fiziologik haqiqatdek iste'dod nishonasi mavjud bo'lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo'lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidadir.

Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham to'g'ri o'tmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning har xil bosqichida qobiliyat va qiziqishlar urtasvda ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Lekin, bo'lishi mumkin bo'lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat - qiziqishlardan aslo paydo bo'lmaydi.

Iqtidor - bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug'atda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi

1) iqtidor bu - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu - insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu - aqliy potentsial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;

4) iqtidor bu - tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu - iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi.

Maxsus qobiliyat egalari esa - biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o‘ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo‘lgan va mana shu faoliyat bilan shug‘ullanishni afzal ko‘radilar.

Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorliligi ;

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog‘liq. Erta yosh davrlar - maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko‘rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu “umumiy qobiliyat” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ma’lum bir yo‘nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo‘layotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Aniq namoyon bo‘lgan, ya’ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e’tibor berilgan qobiliyat “aktual”, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat “potensial” qobiliyat deyiladi. Ko‘pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erta yoshdayoq o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar¹. Va aksincha ko‘p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo‘lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potentsialga ko‘pincha atrofdagilar e’tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlidir. Potentsial qobiliyat haqiqatdan ham ma’lum bir vaqtgacha namoyon bo‘lmagandir.

¹ Ziyonet – O‘zbekiston ta’lim portali

Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potentsial imkoniyatlarni sezmagalar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potentsial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi. Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlarini kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini "bashorat" qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo'q. Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo'g'rilganligi mo'jizalar sodir etishga qodir. Ba'zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko'ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

2.2. Bolalar ijodiyotini tashkil etish va ehtiyojlarini o'rganishni takomillashtirishda madaniyat markazlarining amaliy ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni e'lon qilgach, jahon hamjamiyatiga jadallik bilan integratsiyalasha boshladi. Natijada hamkorlik aloqalari kuchayib, barcha sohada, shu jumladan madaniyat va ma'naviyat sohasida ham harakat erkinligi yuzaga keldi. Bugungi kunda yoshlar madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish, o'larning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 178-son qarori aholining, ayniqsa, bolalar va yoshlarning intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun zarur zamonaviy, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy muassasalar yaratish maqsadida chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari o'z faoliyatini milliy madaniyatimiz an'analarini o'rganish va saqlab qolishda jamoatchilik ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda badiiy ijod hamda havaskorlikning ijodiy tashabbuslarini va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash, mazmunli dam olishni ta'minlashga yo'naltiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ko'plab ijtimoiy sohalarning tubdan modernizatsiya qilinishi, ijtimoiy turmush darajasining o'sishi aholining ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarga bo'lgan talablarini oshirdi.

XXI asr farzandlari zamonaviy maktab va kollejlarda takomillashtirilgan davlat ta'lim-tarbiya talablari asosida o'qib ta'lim olmoqdalar. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining kundan-kunga o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini o'rgangan holda, yurtimizda bunyod etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni qo'llab-quvvatlash bilan birga mazmunli dam olishiga e'tibor qaratilmoqda¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori "Bolalarning san'at va madaniyat sohasidagi qobiliyat hamda iqtidorini barvaqt aniqlash, rivojlantirish bilan shug'illanadigan nodavlat tashkilotlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" –T.: 2008 yil 13 oktyabr

Shu ma'noda yangidan tashkil etilayotgan zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida ham asosiy urg'u yoshlar tarbiyasi uchun yangi xizmat turlari, to'garaklar, badiiy havaskorlik jamoalari, studiyalar, qiziquvchilar uyushmalarini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Jumladan, ushbu markazlarda xalq havaskorlik ijodiyoti to'garaklari, milliy-amaliy san'at to'garaklari, nomoddiy madaniy meros durdonalarini o'rganish to'garaklari, studiyalar, qiziquvchilar uyushmalari, sport to'garaklari, xorijiy tillarni o'rganish kurslari va hokozolar tashkil etilmoqda.

Yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholi dam olish markazlarida O'zbekistonning nomoddiy madaniy me'rosi ob'yektlarini saqlab qolish va ko'paytirish, zamonaviy studiyalar va to'garaklarni, shuningdek, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo'li bilan badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantirish maqsad qilib qo'yilmoqda.

Buning uchun aholining barcha qatlamlariga mo'ljallangan madaniy-ma'rifiy xizmatlarni keng yoyish, internet-studiyalar, elektron resurslar, shu jumladan, internet vositasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari tashkil etiladigan ko'p funksiyali zallarda qiziqarli va maroqli tomoshalar va boshqa tantanali tadbirlar, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o'yinlar bo'yicha musobaqalar o'tkazilishini tashkil etish talab etiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun "O'zbekiston iftixori" va "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" shiorlari ostida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar, milliy adabiyot va san'at namoyondlari, sportchilar bilan aholining, shu jumladan, yoshlarning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uchrashuvlarni tayyorlash va o'tkazish, ushbu faoliyatga professional ijodiy guruhlar va taniqli san'atkorlarni jalb etish markazlarning asosiy ish yo'nalishlaridan biri etib belgilandi¹.

Tashkil etilajak to'garaklar, yig'inlar, uyushma va studiyalarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, shuningdek, ularni ma'naviy qo'llab-quvvatlash va ijodkor

¹ www.Virtual.kutubxona.uz

yoshlarning yutuqlarini targ'ib qilish maqsadida foto va amaliy san'atning doimiy va vaqtinchalik ko'rgazmalari, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining minifestivallari, mahalliy urf-odatlar va an'analarni aks ettiruvchi ommaviy teatrlashtirilgan bayramlar va tomoshalar, xalq sayillari o'tkaziladi.

Tashkil etilayotgan to'garaklarda qatnashchilarga sohaning sir-asrorlari, ijodiy-badiiy did, ranglar bilan ishlash texnikasi o'rgatiladi. O'smir-yoshlar, yosh oilalar, umuman, markazga tashrif buyurishi mumkin bo'lgan 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholining o'qishdan va ishdan bo'sh vaqtlarini unumli, maroqli o'tishini ta'minlash borasida ular kompyuter saboqlari, internet bilan ishlash, ma'lumotlar izlab topish, internet orqali muloqotga kirish, masalan, milliy kutubxonamizga kirish, mumtoz adabiyotlar, milliy g'oya, urf-odatlarga oid ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

To'garaklarning muntazam ravishda malakali mutaxassislar, o'z ishining ustalari tomonidan olib borilishi aholining bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazishini ta'minlash bilan bir qatorda, to'garaklar qatnashchilari sonining ortishi imkoniyatini yaratadi.

Markazlarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun ularning qiziqish va istaklarini inobatga olgan holda yangi xizmat turlari ham tashkil etiladi.

Jumladan, kompyuter savodxonligi - o'smir yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli, maroqli o'tishini tashkil etish va ularni kompyuter texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha bilim ko'nikmalarini oshirish;

- xorijiy tillarni o'rgatish kurslari - yoshlarning jahon tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi asosida, yurtimiz madaniyati va san'ati to'g'risidagi boy ma'lumotlarni xorijiy tillarda ham egallashlari hamda ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirish;

- to'y marosimlari va yubileylar o'tkazish - aholiga xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, mahallalarda to'y marosimlari o'tkazish tizimini takomillashtirish;

- qiziquvchilar uyushmalari - ayollar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli, maroqli, qiziqarli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida "Dugonajon", "Iqbol",

“Nilufar”, “Zakovat”, “Oila - muhabbat qasri”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “O’zbekim o’g’lonlari”, “Qizlar davrasi” va “Qo’li gul ayollar” kabi qiziquvchilar uyushmalari tashkil etilib o’z faoliyatlarini boshlashmoqdalar.

Har bir markazda ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi davlat siyosati asosiy yo'nalishlarini bajarishga qaratilgan yillik kalendar rejalari- tadbirlar ishlab chiqiladi.

Demak, tashkil etilajak zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarida to'garaklar milliy va kasb bayramlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa kasb bayramlariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishga keng jalb etiladi.

Yillik kalendar reja asosida o'tkazilajak ko'riklar, ko'rgazmalar, festivallar va tanlovlar aholining turli qatlamlarini jalb etgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, faoliyat yuritayotgan barcha to'garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalari, uyushmalar, klublar va kurslarning o'z yo'nalishlariga ko'ra hisobotlari (konsert, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zakovat”, mushoira, intellektual o'yinlar, ko'rgazmalar, musobaqalar, bellashuv, mini-festivallar, tomoshalar, tanlovlar shaklida) tashkil etiladi. Bu esa yoshlarning ta'lim-tarbiya olishini yanada yaxshilashga va ularning madaniy xordiq chiqarishlariga kumaklashadi.

Shu o'rinda misol tariqiasida madaniyat va aholi dam olish markazlarining amaliy ishlariga e'tobor berib o'tsak. Mirzo Ulug'bek tumani Madaniyat va aholi dam olish markazida “Barkamol avlod tarbiyasida madaniyat va aholi dam olish markazining o'rni” mavzuida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Toshkent shahar hokimligi, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti hamkorligida tashkil etilgan tadbirda madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari vakillari, o'qituvchilar va yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi ob'ektlarini asrash, ko'paytirish, zamonaviy to'garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo'li bilan badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantirish borasida so'z bordi.

Jumladan, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining ko'rgazmalari hamda tanlovlarini o'tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash,

ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ'ib qilish va eng asosiysi, barkamol avlod ma'naviyatini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq barpo etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlari, turli to'garaklar tashkil etishga ixtisoslashtirilgan majmualar aholining madaniy dam olishini ta'minlash, ong va tafakkurini boyitish, mazmunli va maroqli hordiq chiqarishiga ko'maklashish, o'sib kelayotgan yosh avlodning iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

- Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama barkamol tarzda voyaga etishlari, ilm cho'qqilarini zabt etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, - deydi Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari bosh boshqarmasi mutaxassisi shuningdek, ularning turli zararli illatlar hamda oqimlarga aralashib qolmasliklari uchun targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda¹. Bu borada ma'naviyat o'chog'i hisoblanmish Madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni ham alohida ahamiyatga ega ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida qirq mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan hududlarda kamida to'rt yuz o'rinli, aholi soni yigirma mingdan ziyod bo'lgan joylarda esa 250 o'rinli tomosha zaliga ega markazlarni qurish ishlari jadal olib borilmoqda.

Zamonaviy barpo etilayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida nomoddiy madaniy meroslarimiz hisoblangan milliy san'atimiz va xalq og'zaki ijodi durdonalarini targ'ib qilish maqsadida bir qator to'garaklar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Respublika «Kamalak» bolalar tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarori " "Yangi avlod" Respublika bolalar ijodiyoti festivali jamoatilik kengashi hamda "Yangi avlod" Respublika bolalar ijodiyoti festivali nizomini tasdiqlash to'g'risida" –T.: 2008 yil 23 avgust

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi Festival tashkilotchilari hisoblanadilar.

Festivalda 6-15yoshdagi ijodkor va iqtidorli bolalar ishtirok etadilar.

II.Festivalni o‘tkazish bosqichlari, muddatlari va yo‘nalishlari

Festival uch bosqichda o‘tkaziladi.

Festivalning 1-bosqichi tuman va shaharlardagi musiqa va san’at maktablarida (musiqa va san’at maktabi bo‘lmagan tuman (shahar)lar uchun eng yaqin joylashgan tuman (shahar) musiqa va san’at maktabida) har yili sentyabr-oktyabr oylarida o‘tkaziladi.

Festival yo‘nalishlari ishtirokchilarining soniga qarab, uni tartibli va mazmunli tashkil etish maqsadida yo‘nalishlar bo‘yicha har xil vaqtda tashkil etilishi mumkin. O‘tkazish rejasi har yili arizalar qabul qilingandan so‘ng tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitasi tomonidan hududiy tashkiliy qo‘mita bilan kelishilgan holda belgilanadi va e’lon qilinadi.

Festivalning 2-bosqichi (hududiy bosqichi) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida oktyabr-noyabr oylarida o‘tkaziladi. O‘tkazish rejasi har yili hududiy tashkiliy qo‘mita tomonidan Respublika tashkiliy qo‘mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi va e’lon qilinadi.

Festivalning 3-bosqichi-Respublika final bosqichi bo‘lib har yili noyabr oyida hududlarda mintaqaviy shaklda tashkil etiladi. Respublika bosqichi o‘tkaziladigan hududlar Respublika Tashkiliy qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Taqdim qilingan dasturlar va ijodiy ishlar namunalariga festival yakunlanguniga qadar o‘zgartirish kiritish mumkin emas.

IV.Festivalni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

Festivalning barcha bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish uchun tashkiliy qo‘mita va hakamlar hay’ati shakllantiriladi.

Festivalning 1-bosqichi tashkiliy qo‘mitasi quyidagi tarkibda:

1.»Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuman (shahar) Kengashi raisi - tashkiliy qo‘mita raisi;

2.Tuman (shahar) xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limi mudiri-tashkiliy qo‘mita hamraisi;

3.Tuman (shahar) madaniyat va sport ishlari bo‘limi mudiri-tashkiliy qo‘mita hamraisi;

4.Tuman (shahar) «Barkamol avlod» markazi direktori;

5.Tuman (shahar) madaniyat uyi direktori;

6.Tuman (shahar) «Kamalak» Bolalar tashkiloti raisidan iborat tarkibda shakllantiriladi. Shuningdek, tashkiliy qo‘mita tarkibiga tumandagi boshqa mutasaddi muassasa, korxonalar va tashkilot rahbarlari yoki mas’ul xodimlari kiritilishi mumkin.

Festivalning 1-bosqichi uchun har bir yo‘nalishda uch nafardan kam bo‘lmagan sohaning malakali mutaxassislaridan iborat hakamlar hay’ati shakllantiriladi. Tuman (shahar) hakamlar hay’atiga hududiy hakamlar hay’ati tarkibidan biriktirilgan vakil raislik qiladi.

Tuman (shahar) hakamlar hay’ati tarkibi musiqa va san’at maktablarining malakali mutaxassislari, taniqli san’atkor, rassomlar, hunarmandlar, xoreograf (baletmeyster)lar shoir va yozuvchilardan shakllantiriladi. Tuman (shahar) tashkiliy qo‘mita va hakamlar hay’ati tarkibi hududiy tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.

Festivalning 2-bosqichi tashkiliy qo‘mitasi quyidagi tarkibda shakllantiriladi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi tashkiliy qo‘mitalar tomonidan festivalning 1-bosqichlaridagi hakamlar hay’ati ishiga raislik qilish uchun har bir tuman (shahar)ga hududiy hakamlar hay’atining bir nafar a’zosi biriktiriladi.

Festivalning tuman (shahar) bosqichidan hududiy bosqichga har bir yo‘nalishdan uch nafardan (har bir toifadan 1-o‘rinni egallagan) ishtirokchilar (jami 18 nafar) yo‘llanma oladilar. Tuman (shahar)ga biriktirilgan hududiy hakamlar hay’ati a’zosi xulosasiga ko‘ra istalgan yo‘nalish va toifadan jami qo‘shimcha ikki

nafar ishtirokchilarga (umumiy yo‘llanma olganlar soni jami 20 nafardan oshmagan tarkibda) keyingi bosqichda ishtirok etish uchun yo‘llanma berish mumkin.

Mahalliy va hududiy bosqichlarda ayrim yo‘nalish yoki toifalarda ishtirokchilar (yoki hududiy (respublika) bosqichda ishtirok eta olish mahoratiga ega bo‘lgan ishtirokchilar) bo‘lmagan taqdirda hakamlar hay‘ati raisi qarori bilan ushbu kvota boshqa yo‘nalish yoki toifaga berilishi mumkin.

Respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan festivalning 2-bosqichidagi hakamlar hay‘ati ishiga raislik qilish uchun Respublika hakamlar hay‘ati a‘zolari orasidan har bir hududga bir nafardan vakillar birlashtiriladi.

Hududiy bosqichlardan festivalning Respublika bosqichiga 18nafardan kam bo‘lmagan tarkibda, har bir yo‘nalishdan uch nafardan (har bir toifaning 1-o‘rin sohiblari) ishtirokchilar yo‘llanma oladilar. Hududga birlashtirilgan Respublika hakamlar hay‘ati a‘zosi xulosasiga ko‘ra hududlardan, iste‘dodli ishtirokchilar sonidan kelib chiqib, istalgan yo‘nalish va toifalardan Respublika bosqichiga Respublika tashkiliy qo‘mitasi bilan kelishgan holda qo‘shimcha yo‘llanmalar berilishi mumkin. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bosqichlari g‘oliblarining hujjatlari Respublika bosqichida ishtirok etish uchun hududiy bosqich yakunidan so‘ng Respublika tashkiliy qo‘mitasiga topshiriladi.

Respublika bosqichi uchun belgilangan tartibda har bir yo‘nalishda besh nafardan kam bo‘lmagan tarkibda hakamlar hay‘ati tashkil etiladi. Hakamlar hay‘ati Respublikada tanilgan, tajribali va yuqori malakali mutaxassislar, davlat mukofotlari va boshqa unvonlarga sazovor bo‘lgan san‘atkorlar, rassom hamda hunarmandlar, xoreograf (baletmeyster)lar, shoir va yozuvchilardan tarkib topadi.

Barcha darajadagi hakamlar hay‘ati qarori qat‘iy bo‘lib, o‘zgartirilmaydi, e‘tirozlar qabul qilinmaydi, ijro va ijodiy ishlar qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Festivalda ishtirok etish istagini bildirgan bolalarning hujjatlari tuman (shahar)lar miqyosida Harakatning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlarida avgust-sentyabr oylarida qabul qilinadi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining mahalliy bo‘limlariga topshiriladi.

XULOSA

Shaxs kamolotida bo'sh vaqt omilini mazmunli tashkil etishda eng muhim vosita vazifasini bajaradigan ishlar bu madaniyat va aholi dam olish markazlari va madaniy ma'rifiy tadbirlardir. Madaniy tadbirlar har xil alpozda o'tkazilishi va u tomoshabinlar va ishtirokchilarga bayram kayfiyatini ko'tarishda o'zgacha ruh bag'shlashi mumkin. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan ommaviylik kichik va katta guruhlar faoliyatidagi o'ziga xos ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ishga solishni taqozo etadi. Bunday mexanizmlar orasida eng muximlaridan biri ijtimoiy-psixologik yaqinlik, hamfikrlik, hamdardlik, tuyg'udoshlik xissining paydo bo'lishidir.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari orqali yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, shaxs kamolotga erishishi, umuman yoshlar tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadigan to'garaklar, har xil qiziqarli uyinlar tashkil etish, bolalarning ijodiy qobiliyatlariga moslab klassifikatsiya qilib ish olib borilsa madaniyat va aholi dam olish markazlariga qatnovchi yoshlar soni yanada oshadi.

Bugungi kunda madaniyat va sa'nat muassasalari orqali yoshlarga ta'lim tarbiya berish va boshqa ta'lim muassasalari hamkorligida targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor berish, ular har xil oqimlarga kirib qolmaslikka davat etish muxim masaladir.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi. Shu boisdan yoshlarning qiziqish va ehtiyojlariga qarab madaniy tadbirlarni uyishtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qiziquvchan o'quvchi bu faoliyatning bir yoki bir nechta sohasi: intellektual, akademik, ijodiy, muloqot, liderlik, badiiy va shoroitda yuksak muvafaqqiyatlarni namoyish eta oladigan qobiliyatlarga ega bo'lgan shaxsdir. Iqtidorli yoshlarni tanlab olishda eng muxim muammolardan biri, bu nomzodlarning bilimini, iqtidorini imkon qadar to'g'ri va odilona baxolash masalasidir. Shu bois, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur

mezonlar yoshlarning ham intellektual salohiyatini ham tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga imkon berishi zarur.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari orqali iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni aniqlash, saralash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, individual yordam ko'rsatish vositalarini tanlash muhim hisoblanadi. Bunday o'quvchilar bilan olib boriladigan ijodiy faoliyatning bir nechta yo'nalishlari bo'lib, ular - o'quv, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy, kasbiy, badiiy, sport kabilardir.

Qiziquvchan va iqtidorli yoshlar bilan olib boriladigan ish shakllari mazkur jarayonga yaxlit tizim sifatida texnologik yondashuvni talab etadi. Bunday texnologik yondashuv o'zida tizim barcha tarkibiy qismlarining birgalikdagi faolligini ko'zda tutadi. Biz tadqiq qilgan mavzumizda bolalar ijdoiyotini va iqtidorini shakllantirishda madaniyat va aholi dam olish markazlari muhim vositalardan biri sanaladi. Shuning uchun bularning faoliyatlarini yoshlarning ehtiyojlariga mos ravshda tashkil etish, har hil zamon talablariga mos to'garaklar tashkil etilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1) qiziquvchan va iqtidorli yoshlar bilan olib boriladigan ishlarni tizimli tashkil etish;

2) qobiliyatli yoshlar bilan ishlashda innovatsion shakllar - Internet-konferentsiyalar, forumlar, ijtimoiy loyihalar tanlovlari kabilardan keng foydalanish;

3) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash natijalari monitoringini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Me'yoriy hujjatlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) / Baramol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "O'zbekiston", 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"/ Baramol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "O'zbekiston", 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi" –T.: 1998-yil 29-avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish" –T.: 2001-yil 30-avgust
6. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoni O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida – T.: 1997 yil 8 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari" to'g'risida –T.: 1997 yil 31 mart
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish" to'g'risida –T.: 1998 yil 26 mart
9. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoni "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida" 2004 yil 27 sentyabr
10. O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risidagi" –T.: 2006 yil 20 iyun
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori Toshkent shahrida barpo etilgan madaniyat va san'at ko'rgazmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" –T.: 2006 yil 14 sentyabr
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori O'zbekiston respublikasida 2010 yilgacha bo'lgan davrlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish

va jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi –T.: 2007 yil 21 may

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi –T.: 2008 yil 5 may

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori “Bolalar musiqa va san‘at maktablarining moddiy-texnika ba‘zasini mustaxkamlashga ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi” to‘g‘risida –T.: 2008 yil 8 iyul

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qaror. O‘zbekiston yoshlarining “Kelajak ovozi” Respublika tanlovini har yili o‘tkazish to‘g‘risida” – T.: 2006 yil 14 mart

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori “Bolalarning san‘at va madaniyat sohasidagi qobiliyat hamda iqtidorini barvaqt aniqlash, rivojlantirish bilan shug‘illanadigan nodavlat tashkilotlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” –T.: 2008 yil 13 oktyabr

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarori “ “Yangi avlod” Respublika bolalar ijodiyoti festivali jamoatilik kengashi hamda “Yangi avlod” Respublika bolalar ijodiyoti festivali nizomini tasdiqlash to‘g‘risida” –T.: 2008 yil 23 avgust

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarori. “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob‘ektlarini asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” –T.: 2008 yil 31 oktyabr

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori “O‘zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida” –T.: 2008 yil 13 oktyabr

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori “Eksponatlarni (Ko‘rgazma nushalarini) Respublikadan olib chiqish hamda chet ellarda muzey fondi, jamoat va shaxsiy to‘plamlarning ko‘rgazmalarini o‘tkazish qoidalari haqida” –T.: 2008 yil 28 aprel

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2-son qarori “Faxriy unvonlar egalariga tulovlarni tayinlash va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” –T.: 2008 yil 3 yanvar

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 225-sonli qarori “Bolalarning san’at va madaniyat soxasidagi qobiliyat hamda iqtidorini barvaqt aniqlash, rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan nodavlat tashkilotlarni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi” –T.: 2008 yil 13 oktyabr

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-son qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi 2010 yil

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T.14. – T.: O‘zbekiston, 2006. -280 b.

2. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifalarimizdir. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 46 b.

3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch.-T.: “Ma‘naviyat”, 2008.-176 b.

4. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T.: O‘zbekiston, 2011.-440 b.

5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. T.: “O‘zbekiston” 2015 yil

III. Ilmiy adabiyotlar

1. Aliyev A. Ma‘naviyat, qadriyat va badiiyat. T:2006. 14-15 b.T: 1993

2. Abbasxo‘jayev.O. Mustaqillik nega muqaddas? T:2004 y. 35-b

3. Abdurahmonov.A. Saodatga eltuvchi bilim. 1-2 kitob. T:2003 .

4. Alimova D.A. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining g‘oyaviy asoslari. T:2001

5. Ismoilova Z.K. Bo'lajak mutaxassislar shaxni shakllantirishning g'oyaviy asoslari. Kasb – hunar ta'lim j. – №36 2007. B.18.Ibrohimov.I. Vatan tuyg'usi. "O'zbekiston" nashri. T:1996. 17-b
6. Abdullayeva Sh, Po'ziyev R. Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010.-152 b.
7. Pedagogika tarixi. K.Xoshimov,S.Nishanova.Darslik.-T.: "A.Navoiy UMKN.2005y169-170"
8. A.Zununov, M.Xayrullayev. Pedagogika tarixi. -T.: "Sharq".2000 y. 98-99 b
9. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2001.- 80b.
10. Musurmonova.O. Ma'naviy qadriyatlar, sog'lom avlodni tarbiyalash vositalari. "O'qituvchi" T:1995 y. 12-b
11. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.–T.: O'qituvchi, 2004.-101b.
12. Tulenov.J, G'ofurov.Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. T: 1996. 41-b
13. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 jildlar. T-2000-2006 .
14. WWW.pedagog.uz
15. WWW.ZiyoNet.uz
16. WWW.Fikr.uz
17. Uzvip.uz

Ilovalar

Ijodkor yoshlarning ijodidan amaliy ishlar namunalari

“Yosh mussavir” to’garaglari,



“To’qish” to’garaglari



“Durodgorlik” to’garaglari,



“Bichish-tikish”



“Munchoqli bezak”



“Chet-tillarini o’rganish”



“Zargarlik”



“Yulduz”folklore xalq raqslari hamda “Doirachilar” to’garagi





